

Normurotova A. K.
Eshboyeva S. Q.



BOSHLANG'ICH
TA'LIMDA
TARBIYA
FANI

O'QUV QO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**NORMUROTOVA AZIZA KARIM QIZI
ESHBOYEVA SURAYYO QAXRAMON QIZI**

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANI

O'quv qo'llanma

60110400-Boshlang'ich ta'lim

Denov - 2026

UO'K 373.3.017 KBK 74.200.5 N 78

Normurotova A. K., Eshboyeva S. Q.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. O'quv qo'llanma. – Denov: Innovative publication, 2026. – 131 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitish ijtimoiy – pedagogik hodisa ekanligi, mazkur fanni o'qitishning predmeti, maqsad va vazifalari, hozirgi zamon tarbiya mazmuni hamda konsepsiyalari, tarbiya fanining jamiyat taraqqiyoti va o'quvchi – yoshlar shaxsini shakillantirishdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoni va tarbiya fanining ilmiy – metodik xususiyatlari kabi masalalarni yoritish o'z ifodasini topgan. Shuningdek, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarning ilmiy - metodik jihatdan qurollantirish maqsadida, tarbiya texnologiyalari va ularni tarbiya fanini o'qitish jarayoniga tadbqiq etish yo'llari, tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalashtirish va unga yondoshuvlar, o'qitishda innovatsion texnologiyalar va ularni o'rganadigan mavzular bo'yicha qo'llash kabi masalalar o'z izohini topgan.

Mas'ul muharrir:

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich

Taqrizchilar:

F.A.Xayitova TISU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.v.b
 Boboqulova Dilfuza Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fanlari O'rolovna. – bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2026-yil 6-maydagi 9-sonli yig'ilishida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

ISBN: 978-9910-5266-0-2

© Innovative publication, 2026
 © Normurotova A. K., Eshboyeva S. Q.

KIRISH

Bugungi kunda ilm-fan, texnika ishlab chiqarish va texnologiya sohaslarida erishilayotgan yutuqlar, ta'lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishlari uchun Yangi avlod darsliklari va qo'llanmalarini yaratish zamon talabidir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan sifatli, yetuk mutaxassis tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikr yuritadigan hamda ona vatanga dildan xizmat qila oladigan barkamol inson bo'lishlari uchun ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qiladigan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish murabbiylarimizning asosiy burchidir. Zamonaviy pedagogikada o'quv tarbiya jarayonining subyektiga ko'chiradi va jarayonni hamkorlikda ishlash, imkoniyatlardan oqilona foydalanish, Yangiliklarni yaratishga yo'naltiriladi. Shu bois oliy ta'lim tizimida maxsus tahsil olib o'qituvchi murabbiylik mutaxassisligiga tayyorlanayotgan har qanday bo'lajak kasb egasini pedagogikaning ilmiy nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, oliy ta'limning Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanma yaratishni maqsad qildik, unda ta'lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari, pedagogik faoliyat mazmuni va uni amalga oshirish yo'llari, umumpedagogik bilimlar, pedagogik madaniyat, kasbiy-pedagogik kompetentlik, ilg'or pedagogik texnologiyalardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanishning nazariy va amaliy jihatni yoritishga harakat qildik. Shunday o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyatini ham ochib berishga xizmat qilmog'i

lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har jahhada qo'llab quvvatlash, Yangi O'zbekistonning bosh maqsadidir. Bizda ta'lim-tarbiyani tubdan Yangilash, ayniqsa, mamlakatda tarbiya jarayonining yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash muhim masalalardan biridir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Yosh avlodning ma'naviy yetukligi va tarbiyalanganligi – xalqimiz kelajagini belgilovchi eng muhim omildir". Keltirilgan fikrlar bola tarbiyasining milliy pedagogik, balki ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan "inson kapitali", "Yangi maktab" va "uchinchi renessans poydevorini" g'oyalari ham tarbiya sifatini oshirishning konseptual yo'nalishlarini belgilab beradi. O'quvchining qobiliyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirmasdan turib, sifati ta'lim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bunday qarashlar hozirgi ta'lim siyosatining ichki mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani aynan shu strategik maqsadlarni amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy predmetlardan biridir.

Ushbu konseptual hujjatlarda tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, madaniy merosga hurmat, faol pozitsiyani ushlab turish, zamonaviy ko'nikmalar — mas'uliyat, hamkorlik, o'zini boshqarish, shaxsiy hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi takidlanadi. Boshlang'ich sinf davri aynan shaxsiy shaxsiyatning ijtimoiy sog'lom shakli, shakllanishining poydevori yaratiladigan o'ta muhim bosqich hisoblanadi.

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot olishning kuchaygan bir zamonda, bolalarning shaxsiy fazilatlarini pedagogik tekshiruvni dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Prezidentimizning "Yoshlar tarbiyasiga befarq bo'lmaslik – barchamizning burchimizdir" - degan fikrlari aynan shu zamonaviy rivojlangan davlat darajasidagi ifodasidir.

Milliy tarbiya konseptida yosh avlodni manaviy-axloqiy kuzatuvning, uzluksizligi, milliy va umuminsoniylik uyg'unligi, tarbiya jarayonining insonparvarlik ruhida tashkil etilishi, o'quvchi shaxsiy faol sub'ekt sifatida qaralishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish, tarbiya jarayonini xalq pedagogikasidagi boy meros bilan uyg'unlashtirish talab qiladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining amaliy ahamiyati nihoyatda keng: o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantiradi, ularning ijtimoiy muhitga mos, mustaqil fikrlash, axloqiy tanlov qilish, emotsional erkinlik va o'zini nazorat qilish kabi ko'rinishni rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarbiya fani mazmuni zamonaviy pedagogik paradigmalarni — kompetensiyaviy yondashuvlar, SEL (Social-Emotional Learning), konstruksion, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, uyg'un faol ta'lim texnologiyalari bilan boyitilsa, tarbiya jarayoni bugungi kun bilan hamohang bo'ladi. Bu esa o'qituvchilar oldiga Yangicha mas'uliyat va pedagogik mahoratni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining nazariy asoslarini, zamonaviy metodik tuzilmalarini, tarbiya jarayonining tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini, milliy omillar bilan uyg'unlashtirilgan amaliyotini, tarbiya natijalarini yaxshilash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy asosda yoritib beradi.

I MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANINI O'QITISHNING
NAZARIY ASOSLARI
**1-MAVZU: TARBIYA IJTIMOYIY-TARIXIY ZARURAT
SIFATIDA.**

Tayanch tushunchalar: Tarbiya, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, komil inson, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, jamiyat, ijtimoiy hayot



**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir
(Abdulla Avloniy)**

Reja:

1. Tarbiya tushunchasining ijtimoiy mohiyati
2. Sharq mutafakkirlari asarlarida tarbiya masalasi
3. Tarbiya va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liqligi

1.1. Tarbiya tushunchasining ijtimoiy mohiyati

Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy tajribani egallashi va ma'naviy kamol topishini ta'minlovchi jarayon hisoblanadi. Inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, ammo shaxs sifatida faqat jamiyat va tarbiya ta'sirida shakllanadi. Shu sababli tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Abdulla Avloniy tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o'rni quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".

Mazkur fikr tarbiyaning alohida shaxs emas, balki butun jamiyat taqdiri bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Demak, tarbiya jamiyatning mavjudligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy zaruratdir.

Tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rni har bir xalqning tarixiy jarayondagi ma'naviy shakllanib kelgan narsalar, ma'naviyat va dunyoqarash bilan uzviy bog'liqdir. Insonning ijtimoiy mavjudot sifatida kamol topishi, axloqiy g'oyalarning avloddan-avlodga o'tib ketishi, milliy ongning tarbiya jarayonisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois tarbiya jamiyat uchun erkin tanlov emas, balki majburiyatdir.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida tarbiya shaxsning asosiy omili bo'lib kelgan. Unda jamiyatning maqsadlari, ideallari, axloqiy me'yorlari, iqtisodiy va madaniy moddiyati mujassam bo'ladi. Tarbiyalangan shaxs esa jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy faol, ongli, mas'uliyatli inson.

**TARBIYA – muayyan maqsad asosida, rejali, uzluksiz ravishda
amalga oshiriladigan davomiy jarayondir**

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan choralar yig'indisi hisoblanadi. Tarbiya – o'ziga xos amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan fazilatlar bilani ta'minlash yo'lida olib boriladigan zaruriy faoliyatdir. Tarbiya insonning insonligini mustahkamlagan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual xavfsizliklarining ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni. Chunonchi, keng ijtimoiy ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy rivojlanishini o'z ichiga oladi. Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari – o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsiyati, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini kuzatish talabalaridagi turg'un bo'lgan an'analardir. Darhaqiqat, tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisalardir.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat. Shu bilan birga, tarbiya turlari — axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyalar o'zining xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalarni amalga oshiradi.

Chunonchi:

a) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va

taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong va madaniyatni shakllantirish;

b) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida o'quvchilarni ilmfan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan, Yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish barobarida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashni shakllantirish;

d) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarda o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish hamda uning ishlash qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda Yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, matonat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

e) estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini, estetik ehtiyojlarini, go'zallikni sevish va unga intilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

f) ekologik tarbiyani olib borish chog'ida o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda insonning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'ullik bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

g) iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida ularda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va

malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

h) huquqiy tarbiyalashni tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurlarni singdirish, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

i) g'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga siyosiy bilim berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat munosabatlari tizimi faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida ularda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini qaror toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va boshqalar.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasiga g'oyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalariga ko'ra, ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi — erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita — bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini tarkib

toptirishdir. Ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

2. Bolalar va kattalarning birgalikda faoliyati. O'qituvchi bolalar bilan ma'naviy madaniyatning eng yaxshi namunasini izlashi, shu asosda tarbiyachi ishining hayotiy me'yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi o'quvchining tarbiya jarayonida faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri — bu insonning hayotiy o'z-o'zini anglashi, o'z shaxsiy hayoti va baxtining subyektivi sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Tarbiyaning shaxsiy yo'naltirilganligi. Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, shakl, metod va vositalar emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadrqimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiyaviy g'oyalar mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'quvchi (talaba), ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglab, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi yuzaga keladi. Tarbiyalanuvchining irodali ekanligi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatilsa, yo'naltirilgan faoliyatda yaxshi samaraga erishiladi.

6. Jamoa yo'nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama

harakati unda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi bilan birga amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyachiga inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishning o'zi kamlik qiladi. Bu yerda o'quvchi uchun yuqorida qayd etilgan tarbiyalarning nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi masalalari qiziqarlidir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning mana shu jihati birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan g'oyalar, agar to'g'ri tashkil etilsa, yetuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarning eng muhimi — aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsad — unga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayoni maqsadini tavsiflaydi. Tarbiya jarayoni ko'pqirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatishga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvafaqqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy

qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati — uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta oluvchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi natijasida tarbiya jara yoni murakkablashadi. Maktab tarbiyasi shaxs ongini, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida inson yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi, shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini talab etadi.

Tarbiya jarayoni xususiyatlarining yana biri — uning uzluksizligi hisoblanadi. Maktab tarbiya jarayoni — bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz tizimli harakatlari jarayonidir.

O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki bolalar ma'lum muddat maktabda, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan xoli vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi. Ana shu maqsadda qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Ayni vaqtda respublikamizda o'quvchilarni ta'lim-tarbiya

muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu muassasalarda o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga, bu maskanlarda tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ko'riklar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.


Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati — uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, shaxs sifatleri navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtirila boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishni, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi. Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyekti bo'lib ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlarini, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlarni, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati — tarbiyada qarama-qarshilikning g'oyat ko'pligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar

o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Undan tashqari, bu qarama-qarshiliklar, ko'pincha, bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmashligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yoshi va shaxsiy psixologik xususiyatlarini (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda liziologik sog'lomligini) yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi.



Tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy qobiliyatini kuzatish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, avlodlan- avlodga o'tib

keladigan jarayondir. Lekin har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, uning mazmuni o'ziga xos bilan farq qiladi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning odamlarni ta'minlaydigan insonlar tarbiyasiga bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini ro'yobga chiqarish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga barcha ta'sir ko'rsatadi, qo'llash, ta'minlash, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday holda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlarda olib boriladigan tarbiyaviy emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning foydasiga g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenieva boshqalarni ham o'z ichiga oladi, uzog'ini keng'nodagi tarbiyasi tashqi ta'lim va ma'lumotlash ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'l qo'yilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oilava tarbiyaviylar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshirish. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatleri qarortopishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakathayotida halqiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikva samaradorligi mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravshan yuksalib ketishi kerak. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, undan ham keyin ishlab chiqarishni bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy narsalarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz samarali faoliyat ko'rsatish kerak bo'lgan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega bo'lishi.

1.2. Sharq mutafakkirlari asarlarida tarbiya masalasi

Pedagogik tafakkur rivojida yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash masalasi doimo markaziy ilmiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Ushbu jarayonda o'rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'rifiy merosi muhim nazariy manba sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, XV asrda Movarounnahr, Eron va Xuroson hududlarida ijtimoiy-falsafiy hamda ma'rifiy tafakkur taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan allomalardan biri Jaloliddin Davoniydir. Sharq Uyg'onish davri, xususan Amir Temur va Temuriylar hukmronligi yillarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi Davoniy ilmiy faoliyatining shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi. U "Foniy" taxallusi bilan ham ijod qilgan bo'lib, uning she'riy merosi Eron va Iroq hududlarida keng tarqalgan. Mutafakkirning "Axloqi Jaloliy" asarida yosh avlodni tarbiyalash, ularni kasb-hunar va zarur hayotiy ko'nikmalar bilan qurollantirish masalalari tizimli ravishda yoritilgan. Asarda shaxs kamolotining jamiyat va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati" asarida futuvvat ilmining mohiyati, uning mavzui, kelib chiqishi, piru muridlik, shayxlik va shogirdlik munosabatlari, so'fiylar va futuvvat axliga qo'yiladigan talablar, firqa shartlari, ular kiyadigan liboslari, bosh kiyimlar xulq-odobi haqidagi fikrlar batafsil bayon qilinadi. Koshifiy futuvvat ilmi to'g'risida so'z yuritar ekan, tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lagi sifatida ta'riflaydi va uning asosiy mavzusi inson ruhini tarbiyalash deb biladi. "Zero insonning ruhini fazilatli qilib yetishtirish mumkin", deydi mutafakkir.

Sharq pedagogik tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin tutgan mutafakkirlardan yana biri Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asari orqali yosh avlod tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Mutafakkir tarbiyani inson aqliy salohiyati va shaxsiy hayotini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etadi hamda inson ruhiy kamolotini yuksaltirishni tarbiyaning bosh maqsadi deb biladi. U shaxsda mavjud salbiy illatlarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib, tarbiyaning ularni bartaraf etishdagi muhim rolini asoslab beradi. Kaykovus inson hayotida tarbiyaning ta'siri nihoyatda muhim ekanligini ta'kidlab, yoshlarni tarbiyalashdan

ko'zlangan asosiy maqsad ularni nafaqat bugungi jamiyat ehtiyojlariga, balki kelajak hayot talablariga ham mos, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishdan iborat ekanini ko'rsatadi. Shu bois muallif asarda yoshlarning xulqi, fe'l-atvori va odob-axloqiga alohida e'tibor qaratadi hamda farzandni yoshlikdan ilm, hunar va odob asosida tarbiyalash jamiyatda munosib o'rin egallaydigan, xalqiga foydali insonni shakllantirishga xizmat qilishini e'tirof etadi.

Abu Ali ibn Sino esa tarbiyani inson kamolotining poydevori deb bilib, bolani jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan uyg'un rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi hamda sog'lom tana va pok axloq komil insonni shakllantirishini asoslaydi. Shuningdek Abu Ali ibn Sino bolaning o'smirligidan uning manaviy olami, ruhiyati, tarbiyasiga, uning kelajak uchun foydali yetuk inson bo'lishini hojlar ekan, avvalo bolaning ta'lim tarbiya nazariyasiga alihida ahamiyat qaratadi. U o'z asarlarida "Onglilik inson baxtining asosidir. Har bir inson kuchli, aqli, jismoniy jihatdan yetuk bo'lmog'i lozim, agarda kishida bu hislatlar bo'lmasa tom ma'noda inson jamiyat a'zosi bo'la olmaydi" deya ta'kidlaydi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida tarbiya va odobni insonni ulug'lovchi eng yuksak fazilat sifatida talqin qilib, odobsiz ilm samarasiz, tarbiyasiz jamiyat esa tanazzulga yuz tutishini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar Sharq pedagogik tafakkurida tarbiya masalasining markaziy o'rin tutganini va komil inson g'oyasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Nafsing etsa shuxlug', charx emgagidin qil adab,

Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib

Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asaridan olingan mazkur misrada kishiga go'dakligidanoq to'g'ri va yetarli ta'lim-tarbiya berish lozim ekanligi, bu nechog'lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi.

Bundan tashqari mir Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida komil insonning xos fazilatlari batafsil tasvirlangan. Unga ko'ra, haqiqiy komil inson nafaqat o'zini, balki atrofidagilarni ham tarbiyalash va ularga foydali bo'lishga

intilishi lozim. Navoiy bu xususiyatlarni quyidagicha tasniflaydi va ularni kundalik hayotda amalga oshirishga chaqiradi:

- ✓ Tavba va poklanish – komil inson doimo xatolari va kamchiliklarini tan oladi. ulardan yuz o'g'irmaydi, Alloh oldida tavba qiladi va qalbini poklaydi. Bu fazilat ruhiy mukammallikning asosi hisoblanadi.
- ✓ Halol rizq bilan qanoat qilish – inson o'z mehnati bilan topganini qadrlaydi, ortiqcha orzu va hasadga berilmaydi. Halol rizq bilan yashash komil insonning daxlsiz fazilatidir.
- ✓ O'z kasbida mehnat qilish – komil inson o'z ishini sidqidildan bajaradi, mehnatini qadrlaydi va boylikni halol yo'l bilan topadi. Bu xulq uning jamiyatdagi nufuzini oshiradi.
- ✓ Shariatga rioya qilish – u diniy qoidalarga amal qiladi, ibodat va odob-axloq me'yorlariga sodiq bo'ladi. Shu tariqa, hayoti tartibli va ma'naviy boy bo'ladi.
- ✓ Kamtarin bo'lish – komil inson boshqalardan ustunlikni ko'rsatishga urinmaydi, doimo o'zini past baholaydi va xushmuomala bo'ladi. Bu sifat uni hurmatga loyiq qiladi.
- ✓ Farzandlar va xizmatkorlarga mehribonlik – u oilasidagi va atrofidagi insonlarga mehribon, sabrli bo'ladi, hech qachon qo'pollik qilmaydi. Bu fazilat mehr va bag'rikenglikni oshiradi.
- ✓ Muloyim va chuchuk til – so'zlashuvda yumshoqlik va xushmuomala bo'lish, bahs-munozaralarda tinchlikni saqlash komil insonning muhim xususiyati hisoblanadi.
- ✓ Rahmdil va saxiy bo'lish – u atrofdagilarga yordam berishdan tortinmaydi, qiyin ahvolda ham saxiylik qiladi, bu esa jamiyatda ishonch va mehr-muhabbatni kuchaytiradi.
- ✓ Mardlik va halimlik – qiyinchiliklarga dosh berish, g'azabga berilmaslik va vaziyatni to'g'ri baholash komil insonni boshqalardan ajratib turadi.

- ✓ Xushxulqlik va sabr-toqat – komil inson har doim tinch va yaxshi xulqli bo'ladi, sinov va muammolarga sabr bilan qaraydi.
- ✓ Sadoqat va vafodorlik – do'stlariga, oilasiga va ishlariga sadoqat bilan xizmat qiladi, vafu va ishonchni o'zining odatiga aylantiradi.
- ✓ Rozi-rizo bo'lish – hayotdagi sinov va sinovlarga qaramay, taqdirga rozi bo'lish va hayot sharoitlarini qabul qilish komil insonning ruhiy kuchini oshiradi.
- ✓ Riyozat chekishdan qo'rqmaslik – komil inson o'zini tarbiyalashdan, ruhiy va jismoniy mashqlarni bajarishdan cho'chimaydi, bu esa uni har tomonlama mukammal qiladi.

Shunday qilib, Navoiyning ta'limotida komil inson – bu ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan mukammal shaxs bo'lib, u o'zini va atrofdagilarni tarbiyalash orqali jamiyatga foyda keltiradi. Har bir fazilat, nafaqat shaxsiy yuksalish, balki jamiyatdagi tinchlik, mehr-muhabbat va adolatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Abadiy qadriyatlar tizimida muhim o'rin egallagan buyuk mutafakkirlar qatoriga Xoja Ahmad Yassaviyni ham kiritish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy o'zining yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlari orqali nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham pedagogika fanining rivojiga sezilarli hissa qo'shgan allomalardan biridir. Allomaning ta'limotiga ko'ra, ayyorlik, gunohni yashirish va boshqalarga nisbatan xiyonat inson axloqiga zid holatlar sifatida baholanadi. Ushbu qarashlar orqali u rostgo'ylik, halollik hamda shaxsning o'ziga nisbatan talabchan bo'lishini targ'ib etadi. Shuningdek, mehnat va mashaqqat insonni sabr-toqatli, bardoshli va kuchli iroda sohibiga aylantirishi haqidagi g'oyani ilgari suradi.

Yassaviy hikmatlarida hushyorlik shaxsni faol hayotiy pozitsiyaga undovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Uning hikmatlari o'quvchi shaxsini faol harakatga, ogohlikka, turli fitna va buzg'unchi ishlardan yiroq bo'lishga da'vat etadi. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida Xoja Ahmad Yassaviy merosidan samarali

foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ahmad Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs deb biladi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsnı tiymaslik, mol-dunyoga xirs qo'yish, ta'magirlik, badnafslık, nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi.

Abu Nasr Forobiy tarbiyani jamiyatning barkamol bo'lishi uchun asosiy omil deb biladi. U o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Inson kamoloti ilm va tarbiya orqali yuzaga chiqadi. Tarbiya shaxsda axloqiy fazilatlarni shakllantirib, uni jamiyat uchun foydali inson etib tarbiyalaydi. Fozil jamiyatning asosi – fazilatli va tarbiyali insondir."

Yusuf Xos Hojibning fikricha, tarbiyaning maqsadi – axloqli, adolatli, vatanparvar va jamiyatga foydali insonni yetishtirish. U bilimli inson, avvalo, axloqli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. U o'z asarlarida shunday deydi: "Bola tarbiyasi – davlat va jamiyat ravnaqi uchun eng muhim omildir. Tarbiyali inson adolatli, dono va xalqiga foydali bo'ladi".

Imom G'azzoliy tarbiyani qalbni poklash va axloqni sayqallash jarayoni deb ta'riflab shunday deydi: "Tarbiya inson qalbini yomon illatlardan poklab, unda go'zal xulqni shakllantirishdir. Haqiqiy tarbiya – bu nafsnı tarbiyalashdir".

Sharq mutafakkirlari orasida axloqiy-huquqiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan allomalardan yana biri Burhoniddin Marg'inoniydir. Uning qarashlarida diyonat, imon, vijdon, burch va insoniylik kabi fazilatlar shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Marg'inoniy ta'limotida axloqiy va huquqiy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Allomaning axloqiy-huquqiy qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, adolat, birodarlik, bilimga intilish va mustaqil fikrlash kabi sifatlar ustuvor o'rin egallaydi. Ushbu g'oyalar xalqimiz ma'naviyatining yuksalishida, islom madaniyatining rivojida hamda ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarbiya jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy

hodisa sifatida yondashishni talab qilgan. Buning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiylikka ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi, degan qaror topdi. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbotladi., kommunistik mafkura tazyiqi_tufayli tarbiyada ijtimoiy jarayonlar o'rniga ortiqcha baho beriladi, bu jarayonda irsiy va biologik mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Sho'rolar pedagogikasida tarbiya orkali har qanday odamni kerakli ijtimoiy qiyofaga, qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsiy tarkibi mumkin bo'lgan o'rniga solish baho beriladi. Tarbiyalanuvchi shaxsning tarbiyaga berilish yoki beril mas'lining shaxsiyolinmasligi tarbiyaviy yordamga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning uchun tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga shaxsiy shaxsiyatida emas, ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu holtarbiyaning belgilashzligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obekti bo'mish shaxs va uning o'ziga xoslik xususiyati unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi zararining ildizi, asosan, manashu zamonaviy uslubga borib taqaladi. O'zbekistonlikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlar Yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda mustaqil qaror qaror qabul qildi. Uni isohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yoritishdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyiligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkir pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. hayot, O'zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan oлина boshlandi. Kasallik, tarbiyada irsiy va biologikdi ham tajribaga ega bo'lgan. Ayni paytda, shaxsning keragida tarbiyaning o'rniga ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ridan-to'g'ri izohlash, tarbiyaviy yordamni to'g'rilashga yordam beradi.

Kategoriyalar (yun. kategoria - mulohaza, fikr;) (falsafada) - voqelikdagi hodisalar va bilishning muhimlar, umumiy belgi hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriya bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan.

3.3. Tarbiya va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liqligi

Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy yoshlarda tarbiyaning ahamiyati tobora ortib borayotgani tabiiy hol hisoblanadi. Chunki ijtimoiy, madaniy hamda texnologik jarayonlardagi keskin o'zgarishlar yoshlar hayot tarziga bevosita va chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Tarbiya jarayoni faqatgina axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish bilangina cheklanmay, balki yosh avlodni jamiyatda mas'uliyatli, etika va axloq me'yorlariga amal qiladigan hamda kelajakda muvaffaqiyatga erisha oladigan barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarga mustahkam axloqiy qadriyatlarni singdirish ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga, ijtimoiy muhitga moslashuvchan bo'lishiga yordam beradi. Natijada ular odob-axloqli, hurmat-e'tiborli va mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllanadi. Tarbiya yoshlarning o'z xulq-atvorini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirib, jamiyatda ijtimoiy tartib va intizomni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda yoshlarni ijtimoiy faollikka undash tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarbiya orqali yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat hissi, boshqalarga yordam berish istagi, ekologik hamda iqtisodiy muammolarga ongli yondashuv shakllanadi. Bu jarayon ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga va o'z salohiyatini to'laqonli namoyon etishiga imkon yaratadi.

Tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarning bilimlarni puxta o'zlashtirishi, turli sohalarida malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishi uchun muhim zamin yaratadi. Ilmga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va uni doimiy rivojlantirib borish tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Aynan shu omillar yoshlarning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Hozirgi davrda yoshlar turli madaniyatlar, millatlar va tillar vakillari bilan doimiy muloqotda bo'lib kelmoqda. Tarbiya ularga o'z fikrini mustaqil va aniq ifodalash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish hamda muammolarga ijodiy yondashish ko'nikmalarini singdiradi. Bu esa yoshlarni hayotiy vaziyatlarda ongli qaror qabul qilishga va turli qiyinchiliklarga bardosh bilan qarshi turishga tayyorlaydi.

Zamonaviy tarbiya jarayoni yoshlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va mas'uliyat bilan foydalanishga yo'naltirishi lozim. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar global axborot makoniga chiqish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, ushbu jarayonda axloqiy me'yorlarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tarbiya yoshlarga o'z hissiyotlarini boshqarish, stressli vaziyatlarga moslashish va psixologik barqarorlikni saqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu holat ularning ruhiy holatini mustahkamlab, qaror qabul qilish jarayonida aniq va izchil bo'lishiga, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy tarbiya yoshlarni kreativ fikrlashga, Yangicha g'oyalar va innovatsion tashabbuslarni ilgari surishga rag'batlantiradi. Texnologiyalar orqali yoshlar Yangi bilim va imkoniyatlarga ega bo'lib, o'z ustida ishlash, o'zini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiya insonni uzluksiz o'zini takomillashtirishga, bilim va ko'nikmalarni muntazam Yangilab borishga undaydi. Bu esa shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Tarbiya yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish, salbiy odatlardan voz kechish va to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Amaliy topshiriq

“Assotsiatsiyalar” metodi

O'qituvchi sinfni kichik guruhlariga bo'lib chiqadi. O'quvchilarning har bir uruhiga yangi mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki gap yozilgan lakat beriladi. Uning quyiga o'quvchilar ana shu so'z yoki gap ularning savvurlarida qanday ekanligini yozib chiqadilar.

Masalan: mavzu “Men hayotni sevaman!”

Tanlangan so'z – hayot.

H - havo ...

A – abadiy emas, ...

Y - yoshlik, ...

O – onamiz bizga in'om etgan ne'mat, ...

T - tole, ...

Eslatma: Turli guruhlarda yangi mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan har il so'zlar bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Yozilayotgan so'zlar nafaqat erilgan harflardan boshlanishi, balki umumiy berilgan so'z mohiyatiga mos am kelishi lozim. Yozilishi kerak bo'lgan so'zlar soni, mavzuning urakkablik jihatiga hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab, o'qituvchi tomonidan belgilanadi.

Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarda tezkorlik, ijodkorlik, tanqidiy krlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Kichik guruhlarda ishlash sa o'quvchilarda o'zaro hurmat, bir-birining fikrini eshita bilish, guruhda o'zaro tenglik va hamjihatlikka erishish, bir maqsad sari jipslikda, irdamlikda harakat qilishga o'rgatadi.

2-MAVZU: MILLIY TARBIYA KONSEPSIYASI

Tayanch tushunchalar: Milliy tarbiya, axloq, ma'naviyat, Konsepsiya, oila, mahalla, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, jamiyat, ijtimoiy hayot



**Ta'lim so'z va o'rgatish bilan bo'ladi
Tarbiya esa amliy ish, tajriba bilan bo'ladi
(Umar Hayyom)**

Reja:

1. Milliy tarbiya konsepsiyasi mazmuni
2. Milliy tarbiya konsepsiyasining maqsadi
3. Konsepsiyaning asosiy tamoyillari, vazifalari va ahamiyati

2.1. Milliy tarbiya konsepsiyasi mazmuni

Milliy tarbiya — xalqning tarixiy xususiyatlari, qadriyatlarini, urf-odatlarini va tili asosida shakllangan, yosh avlodda milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy xususiyatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayondir.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali bo'lib, unda tarbiyaning mohiyatini ochib beruvchi ichki va tashqi omillar ya'ni subektiv va obektiv omillar muhim rol o'ynaydi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va hayotiy munosabatlarini anglashga yordam beradi. Obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi va hayotiy muammolarni ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari va hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarbiya jarayoni uzoq muddatli bo'lishi bilan ajralib turadi, chunki tarbiyaning natijalari tezda ko'zga tashlanmaydi. Insoniy sifatlarni rivojlantirgan holda shaxsni voyaga yetkazish uchun uzoq muddat talab etiladi.

Tarbiya jarayoni murakkabdir, chunki shaxs bir vaqtning o'zida turli qarashlar mavjud bo'lgan sharoitda harakat qiladi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar shaxs ongi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlar davrida insonning asab tizimi yuqori darajada sezgir va beqaror bo'lgani sababli, muvaffaqiyatli tarbiya uchun o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish zarur.

Bundan tashqari, tarbiya jarayoni uzluksiz bo'lishi lozim. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy jarayon o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi tizimli va uzluksiz harakatlarini talab qiladi. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi va takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyatga ega. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishi muhim hisoblanadi.

Milliy tarbiya — bu yosh avlodni xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analari, ma'naviy merosi hamda ijtimoiy hayot talablari asosida tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz va tizimli pedagogik jarayondir. Milliy tarbiyaning bosh maqsadi — milliy o'zlikni anglagan, Vatanga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Milliy tarbiya tushunchasi tarbiya mazmunida ona tiliga hurmat, milliy g'urur, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga sadoqat, urf-odat va an'analarni e'zozlash kabi qadriyatlarning ustuvorligini ifodalaydi. Shu bilan birga, u umuminsoniy qadriyatlar — insonparvarlik, adolat, tinchlik, bag'rikenglik va hamkorlik g'oyalari bilan uzviy uyg'unlikda amalga oshiriladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan milliy tarbiya shaxsning axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy, huquqiy va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda tarbiya faqatgina ma'lum bir fan yoki mashg'ulot bilan cheklanmay, balki oila, ta'lim muassasalari, mahalla va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari hamkorligida olib boriladi.

Milliy tarbiyaning muhim jihati — uning uzluksizligi va izchilligidir. Tarbiya jarayoni bolalikdan boshlab voyaga yetguniga qadar bosqichma-bosqich davom etadi. Har bir bosqichda shaxsning yosh va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy ehtiyojlari hisobga olinadi.

Shuningdek, milliy tarbiya yoshlarni globallashtirish sharoitida mafkuraviy va ma'naviy tahdidlardan himoyalash, ularda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bu holat milliy tarbiyaning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mos ravishda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya — bu xalqning ma'naviy merosini asrab-avaylash, uni Yangi avlodga yetkazish va shu asosda jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisadir. U shaxs kamoloti, fuqarolik jamiyati rivoji va davlat mustahkamligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

2.2. Milliy tarbiya konsepsiyasining maqsadi

Bugungi kunda har bir mustaqil davlat o'z avlodini ma'naviy, axloqiy, intellektual va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni strategik vazifa sifatida belgilaydi. Chunki yoshlar — bu millatning eng qadimgi an'analari, ma'rifat va ma'naviyatini davom ettiruvchi kelajak egalaridir. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish orqali Yangi, barkamol va milliy istiqbol ruhini chuqur angalaydigan avlodni shakllantirishga qaratilgan kompleks hujjatlarni ishlab chiqdi. Shular jumlasidan bo'lgan Milliy tarbiya konsepsiyasi yoshlarni milliy ong bilan tarbiyalashning nazariy-amaliy asoslarini belgilovchi muhim hujjatdir.

Milliy tarbiya konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlarni yagona g'oyaviy, metodologik va tizimli asosda mujassamlashtirgan strategik hujjat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiya tahlili shuni ko'rsatadiki, unda tarbiya jarayoniga shaxs-jamiyat-davlat munosabatlari nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Avvalo, konsepsiyaning asosiy g'oyasi — milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga tayangan holda barkamol shaxsni shakllantirishdir. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, hujjatda tarbiya faqat axloqiy tushunchalar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi kompetensiyalar bilan boyitilgan. Bu esa milliy tarbiyani tor doiradagi an'anaviy yondashuvdan chiqarib, zamonaviy pedagogik paradigmalarga moslashtiradi.

Konsepsiyada tarbiyaning uzluksizligi va tizimliliği alohida e'tirof etiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, hujjatda tarbiya jarayoni faqat ta'lim muassasalari doirasida emas, balki oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorlikda olib borilishi zarurligi asoslab berilgan. Bu yondashuv tarbiyaning ijtimoiy tabiatini to'liq ochib beradi va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Milliy tarbiya konsepsiyasida globallashtirish sharoitida yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalash masalasi muhim o'rin egallaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hujjatda yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborot madaniyatini oshirish va mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa konsepsiyaning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mos ravishda ishlab chiqilganini tasdiqlaydi.

Konsepsiyaning yana bir muhim jihati — unda milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani shakllantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilganidir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yosh avlodda milliy g'urur, ajdodlarga hurmat, madaniy merosga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash maqsad qilingan.

Umuman olganda, Milliy tarbiya konsepsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hujjat tarbiya masalasini davlat siyosati darajasiga ko'targan, ilmiy asoslangan, kompleks va istiqbolga yo'naltirilgan dasturiy hujjat hisoblanadi. Uning samarali amalga oshirilishi ta'lim-tarbiya tizimida sifat o'zgarishlariga olib kelishi, barkamol va ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo'lishi

shubhasiz. Milliy tarbiya konsepsiyasining qabul qilinishi — jamiyatda tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish va milliy g'oya asosida Yangilash zaruriyatidan kelib chiqdi. XXI asr sharoitida O'zbekiston ta'lim tizimida quyidagi muammolar mavjud edi:

an'anaviy tarbiya tizimi eskirgan, zamon talablari bilan moslashmagan edi; yoshlar orasida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash borasida tizimli yondashuv yetishmayotgan edi;

global axborot oqimi va texnologik o'zgarishlar yoshlarning dunyoqarashi va ma'naviy immunitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda edi.

Shu bois, milliy tarbiya jarayonini yagona konseptual hujjat asosida tartibga solish va u orqali yoshlarning shaxsiy fazilatlarini, ma'naviy merosni anglash qobiliyatini, milliy qadriyatlarni chuqur his etishlari bo'yicha sistemali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim edi. Milliy tarbiya konsepsiyasi aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib ishlab chiqilgan hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil, faol, keng dunyoqarashga ega va ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, tarbiya jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ana shunday muhim hujjatlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroridir.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga tayyor, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining mazmuni

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi — shaxsni homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha bo'lgan davrda bosqichma-bosqich ma'naviy jihatdan

shakllantirishga qaratilgan yagona tizimli hujjatdir. Konsepsiyada tarbiya jarayoni uzluksiz, uzviy va izchil bo'lishi lozimligi asoslab berilgan.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

Birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr)

Ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr


Uchinchi bosqich — umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar)

To'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh)

- ✓ Birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);
- ✓ Ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;
- ✓ Uchinchi bosqich — umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);
- ✓ To'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi

davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:



Homilador ayollar o'qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma'rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro'yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma'naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida "Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti" mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o'tkazish.

Oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish, ajralishlarning oldini olishda "Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar" prinsipi asosida "Ota-onalik — baxt va burch" targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.

Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlari:

- muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish;
 - o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish;
 - ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;
- o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish.

3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo'ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to'plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi.

Bolalarga taklif etilayotgan o'yinchoqlarni ma'naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sirlarning oldi olinadi.

Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida:

- bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari" da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish;
- "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;
- uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-ona kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Milliy tarbiya konsepsiyasi asosida 1-11-sinflar uchun yagona "Tarbiya" fani joriy etildi va bu quyidagi fanlarning umumiy ko'rinishi va integratsiyasi hisoblanadi.



Mazkur konsepsiya orqali yosh avlodda:

Vatanga sadoqat,

yuksak ma'naviyat,

faol fuqarolik pozitsiyasi,

ijtimoiy mas'uliyat,

mustaqil va innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Konsepsiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari

Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va Chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

Birinchidan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlar tarbiyasiga oid vazifalarni samarali amalga oshirish asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayonda yoshlarni tinch-osoyshta hayot uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Bu orqali tarbiyaviy ishlarning natijadorligini aniq mezonlar asosida baholash imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, tarbiya jarayonida uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga asoslanish, ya'ni onaning homiladorlik davridan boshlab go'daklar va bolalar tarbiyasini to'g'ri tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi.

Shuningdek, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash va mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Uzluksiz ma'naviy tarbiyani samarali tashkil etishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari hamda mahalla jamoatchiligining o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Konsepsiyada ushbu subyektlar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini oshirish, pedagogik madaniyatini rivojlantirish, ularni jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirib borish ham muhim vazifa sifatida belgilangan.

Konsepsiyada ommaviy axborot vositalari va Internet orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar va buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish masalasi alohida ta'kidlangan. Bu jarayonda yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Boshqaruv va nazorat mexanizmlari

Qarorga muvofiq, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Chora-tadbirlar rejasining bajarilishini muvofiqlashtiradi hamda vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar faoliyati ustidan tizimli monitoring olib boradi.

Milliy tarbiya konsepsiyasi ta'lim jarayoni bilan birga yoshlarning ma'naviy-axloqiy, milliy ongini shakllantirish, shaxsiy fazilatlar va jamiyatga foydali bo'lishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni mustahkamlashga qaratilgan tamoyillarni belgilaydi. U nafaqat maktabda, balki oila hamda jamiyat hayotida ham tarbiyaning uzluksiz jarayonini ta'minlashni nazarda tutadi.

2.3. Milliy tarbiya konsepsiyasining asosiy tamoyillari, vazifalari va ahamiyati

Milliy tarbiya konsepsiyasi bir qator pedagogik, ijtimoiy va ma'naviy tamoyillarga tayanadi. Ushbu tamoyillar tarbiya jarayonining mazmuni, shakli va yo'nalishini belgilab beradi.

Birinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tamoyili yetakchi o'rinni egallaydi. Bu tamoyil asosida yosh avlodni tarbiyalashda milliy an'analar, urf-odatlar, tarixiy meros bilan bir qatorda insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va tinchlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yondashiladi.

Ikkinchidan, uzluksizlik va tizimlilik tamoyili muhim hisoblanadi. Konsepsiyada tarbiya jarayoni bolalikdan boshlab butun umr davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tarbiya faqat ta'lim muassasalari bilan cheklanmay, balki oila, mahalla va jamiyatning boshqa institutlari bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi zarur.

Uchinchidan, shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili tarbiya jarayonining markazida inson shaxsi turishini ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har bir yoshning individual qobiliyati, ehtiyoji, qiziqishi va ijtimoiy faolligi hisobga olinadi.

Shuningdek, ijtimoiy hamkorlik va mas'uliyat tamoyili, tarbiyaning hayot bilan uzviy bog'liqligi, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tamoyillari Milliy tarbiya konsepsiyasining g'oyaviy asosini tashkil etadi.

Milliy tarbiya konsepsiyasining asosiy vazifalari

Milliy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalar yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Asosiy vazifalardan biri — yoshlar ongida milliy g'oya, milliy o'zlik va tarixiy xotirani mustahkamlashdir. Bu orqali yoshlarda Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Keyingi muhim vazifa — ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish. Konsepsiyada halollik, adolat, mas'uliyat, mehnatsevarlik, sabr-toqat va bag'rikenglik kabi fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida yoshlarni globallashtirish sharoitida ma'naviy va axborot tahdidlaridan himoya qilish, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, pedagoglarning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish ham konsepsiyaning muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Milliy tarbiya konsepsiyasining ahamiyati

Milliy tarbiya konsepsiyasi O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida strategik va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim hujjatdir. Uning ahamiyati, avvalo, tarbiya masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarilganida namoyon bo'ladi.

Mazkur konsepsiya yosh avlodni milliy va ma'naviy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va fuqarolik ongining rivojlanishi ta'minlanadi.

Shuningdek, Milliy tarbiya konsepsiyasi ta'lim tizimida tarbiya ishlarini yagona metodologik asosda tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish va tarbiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Milliy tarbiya konsepsiyasi nafaqat bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan, balki kelajak avlod tarbiyasini strategik rejalashtiruvchi muhim dasturiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Milliy ta'lim tushunchasini izohlang va uning asosiy maqsadlarini aytib bering.
2. Milliy tarbiya tushunchasini tushuntiring. Milliy tarbiya shaxsni qanday fazilatlar bilan tarbiyalaydi?
3. Milliy ta'lim va milliy tarbiya o'rtasidagi asosiy bog'liqlik va farqlarni ko'rsating.
4. Milliy tarbiyaning uzluksizlik va izchillik tamoyillari nimani anglatadi va u yoshlar tarbiyasida qanday rol o'ynaydi?
5. Milliy ta'lim va milliy tarbiya jamiyat va davlat rivoji uchun qanday ahamiyatga ega?

Amaliy topshiriq

“Tushunchalar tahlili” metodi


Mazkur metod o'quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, Yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: → ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; → o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); → o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma

ma'lumot beradilar; → belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tug'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; → har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "An'analar - xalq xotirasidir" mavzusi bo'yicha tayanch tushunchalar tahlili.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushunchalar qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha izoh
An'ana		
Urf - odat		
Marosim		
Qadriyat		
Hashar		
Milliylik		

3-MAVZU: MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN'ANALAR - TARBIYA ASOSI.



Tayanch tushunchalar: Milliylik, milliy qadriyat, millat, marosim, xalq og'zaki ijodi, qadriyat, urf-odat, an'ana, axloq, ma'naviyat.

Tarbiya qiluvchi inson -tabibdir. Tabib xastaning kasaligiga da'vo qilsa, tarbiyachi -boladagi yaxshi xulqni, poklikni, mehnatga layoqatni davolaydi.
(Abdulla Avloniy)

Reja:

1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.
2. Milliy tarbiyada milliy urf-odat, qadriyat va an'analarning o'rni
3. Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni SEL texnologiyasi asosida shakllantirish.

3.1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya — bu shaxsni o'z millati, tarixi va madaniyati bilan bog'laydigan. uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladigan murakkab tarbiyaviy jarayondir. Milliy tarbiya orqali shaxs milliy qadriyatlar, urf-odatlar, madaniy an'analar va tarixiy tajribalar bilan tanishadi, ularni o'z hayotida amalda qo'llashni o'rganadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan milliy tarbiya konsepsiyasida ta'kidlanganidek, milliy tarbiya shaxsda ma'naviy mustahkamlik, milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Milliy tarbiya mazmuni uning tarkibiy elementlarida aks etadi. Olimlar fikricha, milliy tarbiya shaxsni jamiyat va milliy madaniyat kontekstida rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

Milliy tarbiya shaxsga o'z millatining madaniy merosini — ona tili, adabiyoti, musiqasi, xalq san'ati va urf-odatlarini yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, B. Hall

ta'kidlaydiki, milliy madaniyatni o'rganish shaxsning immunitetini mustahkamlaydi va o'zligiga ishonch bag'ishlaydi.

Milliy tarbiya shaxsni o'z millati tarixiy tajribasi bilan tanishtiradi, tarixiy shaxslar va voqealar orqali milliy xotirani mustahkamlaydi. Mahalliy olim O. Eshqulov fikricha, tarixiy ongni rivojlantirish shaxsni mas'uliyatli va vatanparvar inson qilib tarbiyalaydi.

Milliy tarbiya shaxsda halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat va adolat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. Xorijiy olimlar R. Coles va J. S. Watson (1995) milliy tarbiyani shaxsni axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuklashtirish vositasi deb hisoblaydilar.

Milliy tarbiya shaxsga jamiyatga foydali bo'lishni, boshqalarni hurmat qilishni va milliy manfaatlarni qadrlashni o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan, S. Bekmirzaev shuni ta'kidlaydiki, milliy tarbiya shaxsning jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlaydi va uning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

Milliy tarbiyaning mohiyati uning shaxsni milliy ildizlari bilan bog'lash va jamiyatning barqarorligini ta'minlashdagi o'rni namoyon bo'ladi.

Milliy xotirani saqlash va rivojlantirish: Shaxs o'z tarixini va madaniy merosini bilib, kelajak avlodga yetkazadi.

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy o'zlikni anglashni xalqning

ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bog'liq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka yega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbasi an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviyaxloqiy tarbiya muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir.

Axloq (lotincha „moralis“ — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

“Axloq”, “xulq” va “atvor” soʻzlari arabcha soʻz boʻlib, ular oʻzbek tilida ham oʻz maʼnosida qoʻllaniladi. Ayrim odamlar “Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq meʼyorlari majmuyi” deyishsa, boshqalar esa “Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi”, deyishadi.

Axloq meʼyorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat meʼyorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy boʻlsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar boʻlishga oʻrgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq taʼlimi tizimida oʻqitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bogʻliq boʻladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamiyat va vatanga, mehnatga, kishilarga, oʻz xulqiga munosabatlari quyidagilarda oʻz aksini topgan:

- a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- d) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega boʻlgan shaxsni shakllantirish;
- e) shaxsning oʻziga, oʻz xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

❖ **Axloqiy va maʼnaviy rivojlanish:** Milliy tarbiya orqali shaxs ichki dunyo boyligini rivojlantiradi, sabr-toqat va halollik kabi fazilatlarni egallaydi.

❖ **Vatanparvarlik va sadoqat:** Shaxs milliy manfaatlarini qadrlashni oʻrganadi, jamiyatga va Vatanga sadoqatli boʻladi.

❖ **Madaniy merosni avlodlarga yetkazish:** Xalq anʼanalari, urf-odatlar va milliy qadriyatlar davom ettiriladi.

3.2. Milliy tarbiyada milliy urf-odat, qadriyat va anʼanalarning oʻrni

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk davrlardan boshlab milliy maʼnaviyatimizni, qadriyatlarimizni hamda xalqimiz yaratgan boy madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri sifatida

qaralmoqda. Zero, har qanday jamiyatning ertangi kuni yoshlarning qanday taʼlim olishi va qanday ruhda tarbiyalanishiga bevosita bogʻliqdir.

Qadriyatlar inson hayotida muhim oʻrin tutadigan, jamiyat va millat manfaatlariga xizmat qiladigan tushunchalardir. Ularga erkinlik, adolat, tenglik, haqiqat, maʼrifat, goʻzallik, halollik va burchga sadoqat kabi fazilatlar kiradi. Mazmuniga koʻra qadriyatlar bir necha guruhlarga ajratiladi. Jumladan, tabiiy qadriyatlar inson yashashi uchun zarur boʻlgan tabiiy sharoitlarni ifodalaydi. Iqtisodiy qadriyatlar ishlab chiqarish jarayoni va uning vositalari bilan bogʻliq boʻlsa, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar jamiyatdagi erkinlik, tenglik va adolat kabi tamoyillarni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, ilmiy qadriyatlar bilim va tajriba bilan, falsafiy qadriyatlar esa gʻoya va qarashlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Badiiy qadriyatlar sanʼat va adabiyot orqali namoyon boʻlsa, diniy qadriyatlar insonning eʼtiqodi va vijdoniga taalluqlidir.

Shu bilan birga, qadriyatlar milliy va umuminsoniy turlarga ham ajratiladi. Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan moddiy va maʼnaviy boyliklarini ifodalaydi.

Qadriyatlar orasida eng yuksagi inson hisoblanadi. Boshqa barcha qadriyatlar aynan inson manfaatiga xizmat qiladi. Insonning qadri uning jamiyatga, atrof-muhitga va oʻziga boʻlgan munosabati, xulq-atvori orqali namoyon boʻladi. Bu esa shaxsning oʻzini nazorat qilishi, oʻz ustida ishlashi va ichki talabchanligini oshirishiga yordam beradi. Shaxsiy qadr-qimmat ham milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan muhim ijtimoiy sifat hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida maʼnaviy qadriyatlar muhim oʻrin egallaydi. Shu sababli yosh avlodda yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Axloq esa jamiyat rivoji davomida shakllangan meʼyor va qoidalar majmui boʻlib, insonlarning oʻzaro munosabatlarini tartibga soladi. Ushbu meʼyorlar har bir insondan jamiyat talablariga mos xulq-atvorni namoyon etishni talab qiladi. Shunday ekan, insonning dunyoqarashi uning xulqini belgilaydi, dunyoqarash oʻzgarsa — insonning oʻzi ham oʻzgaradi. Oʻzbek

milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur".

Axloq inson hayotida muhim o'rin tutib, uning o'zini boshqarish, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, halol mehnat qilish va munosib hayot kechirish mezonlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, axloq doimiy o'zgarimas hodisa emas, balki tarixiy rivojlanish mahsulidir. Ya'ni turli davrlarda axloqiy qarashlar va me'yorlar o'zgarib boradi: bir davrda to'g'ri deb hisoblangan qoidalar boshqa davrda o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

O'zbek milliy axloqiy qadriyatlar asrlar davomida shakllangan bo'lib, unda ajdodlarimizning boy tajribasi, hayotiy saboqlari va ma'naviy merosi mujassamdir. Bu qadriyatlar bugungi kunda ham inson tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun esa ma'naviy yetuk, har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Sharq mutafakkirlari ham komil insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Qobusnoma, Guliston, Bo'ston, Temur tuzuklari, Bahoriston, Mahbub ul-qulub hamda Axloq muhsiniy kabi asarlarda axloqiy kamolot masalalari keng yoritilgan.

Mustaqillik yillarida ta'lim va tarbiya tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada tariximiz, urf-odatlarimiz va madaniyatimizga bo'lgan qiziqish ortdi. Bugungi yoshlar esa o'z bilimlari, dunyoqarashi va tashabbuskorligi bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqdalar. Ular jamiyatda do'stlik, hamkorlik va sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga intiladilar.

Komil insonni shakllantirishda oila va ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Aynan shunday muhitda ijobiy axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Inson o'z ustida ishlagan sari o'z kamchiliklarini

anglaydi va ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Shu jihatdan, xalqimiz azaldan axloqiy tarbiya borasida boy an'analarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Shu sababli o'quvchilarda jamiyatga hurmat, insonlarga mehr va ishonch tuyg'ularini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga hamjihatlik, do'stlik, o'zaro yordam kabi fazilatlarining ahamiyati tushuntirib borilishi zarur. Chunki aynan shu sifatlar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya esa shaxs ongini maqsadli ravishda shakllantirish, unda ijobiy his-tuyg'ularni rivojlantirish va to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini hosil qilish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi yoshlarni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalash, ularda yuksak axloqiy fazilatlar va mustahkam e'tiqodni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalariga insonda jamiyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi murosasizlikni kuchaytirish, intizom va mas'uliyat hissini rivojlantirish kiradi. Shuningdek, iymon, insof, halollik va insonparvarlik kabi fazilatlar har bir shaxs hayotida ustuvor bo'lishi lozim. Zero, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi har bir insonning ongli faoliyati va mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir.

Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur. O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi jamiyatimizda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi,

uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim.

Diyorimizda mustaqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an'alariga ye'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. O'lkamizda buyuk rejalar, bunyodkorlik ishlari aql-idrok, sabr-qanoat bilan, tarixiy an'alarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

An'ana — bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Urf-odat — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib ko'cha va hovlini supurish;
- mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish;
- bayram arafasida kasal, o'jiz, qiynalganlardan habar olish;
- Yoshi ulug'larga izzat-ikrom ko'rsatish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni:

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;

— oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi.

Marosim – arab tilidan olingan bo'lib, “marsum” chizilgan, rasm qilingan, odat bo'lgan degan ma'nolarni anglatadi.

Marosim — an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqyealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

Marosimlarni shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin.



Oilaviy marosimlar



Mavsumiy marosimlar



Bayram marosimlari


Oilaviy marosimlar – bu oilaning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan odatlar hisoblanib, turli millat va madaniyatlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'zbek millatida oilaviy marosimlar milliy qadriyatlar asosida shakllangan bo'lib, bu oila ichida birlik, bir-birlariga hurmat, mehr-muhabbat va qo'llab quvvatlashni kuchaytirishga xizmat qiladi. Farzandga kichikligidan oilaviy marosimlarni singdirib borish, tarbiyaviy jarayonlarga kiritish uning kelajakda komil inson bo'lib ulg'yishida, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ulkan xissa qo'shadi.

Oila va undagi an'analar farzand kamolotining muhim poydevori hisoblanadi. Chunki bola hayotdagi dastlabki ijtimoiy tajribani aynan oila muhitida orttiradi.

insonlar bilan muloqot qilishni o'rganadi hamda ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan shakllanadi. Har bir xonadonda vaqt o'tishi bilan tarkib topgan o'ziga xos tartib-qoidalar va urf-odatlar mavjud bo'ladi. Ushbu oilaviy an'analar jamiyat bilan uyg'un munosabatlarni yo'lga qo'yishga, oila a'zolarini birlashtirishga, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashga, o'zaro tushunishni kuchaytirishga hamda kelishmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Oilaviy tarbiya an'analari hurmat qilinadigan muhitda voyaga yetayotgan farzandlar ota-onaning fikr-mulohazalariga quloq tutishni o'rganadilar. Shu bilan birga, ota-onalar ham farzandlarining muammolariga befarq bo'lmay, ularni hal etishda ko'mak beradilar va ruhiy qo'llab-quvvatlaydilar.




Mavsumiy marosimlar – yil fasllarining almashinuvi, tabiat hodisalari, qishloq xo'jaligi ishlarining boshlanishi va yakunlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'anaviy udumlar majmuasidir.

Mavsumiy marosimlar inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalaydi hamda xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Mavsumiy marosimlar aniq belgilangan vaqt oralig'ida, muayyan tartib-qoidalariga amal qilgan holda o'tkaziladi va alohida bir oila doirasida emas, balki butun jamiyat miqyosida nishonlanadi.

Mazkur marosimlar jamiyat a'zolari o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlab, milliy qadriyatlarining saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavsumiy marosimlar yosh avlod tarbiyasida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bolalar ushbu marosimlar orqali tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, mehnat jarayonining qadrini anglashni va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni o'rganadilar.

Mavsumiy marosimlarda bolalarning faol qatnashishi ularning jamoada o'zini tutish madaniyatini shakllantiradi, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik tuyg'ularini mustahkamlaydi. Shuningdek, bu jarayon-bolalarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik hissi va xalq an'anasiga sadoqat tuyg'ularini rivojlantiradi. Marosimlar davomida aytiladigan qo'shiqlar, maqollar, rivoyatlar va urf-odatlar orqali bolalarning nutqi boyiydi, estetik didi va ma'naviy dunyosi kengayadi.

Demak, mavsumiy marosimlar nafaqat tabiat hodisalariga bog'liq bo'lgan an'anaviy tadbirlar, balki bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash hamda milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.



• **Bayram marosimlari** – ma'lum bir millatga tegishli bo'lgan milliy bayramlarni nishonlash bilan bog'liq tadbirlardir.

Bayram marosimlari xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va madaniy merosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan an'anaviy tadbirlar majmuasidir. Bu bayramlar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etib, muayyan sanalarda keng jamoatchilik ishtirokida nishonlanadi. Bayram marosimlari marosimlari millatning urf-odatlarini, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini namoyon etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur bayramlar jamiyat a'zolari o'rtasida birlik va hamjihatlikni kuchaytiradi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini mustahkamlaydi. Bayram marosimlari jarayonida xalqning tarixi, madaniyati va an'analari keng targ'ib qilinadi, yosh avlodga o'tmish merosini anglash imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, bayram

marosimlari marosimlari nafaqat tantanali tadbirlar, balki muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi.

Bayram marosimlarida bolalarning ishtiroki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bayramlar orqali bolalarda vatanparvarlik, milliy g'urur, ajdodlarga hurmat, kattalarga ehtirom va jamoada o'zini tutish madaniyati shakllanadi. Shuningdek, turli sahna ko'rinishlari, qo'shiqlar, milliy o'yinlar va an'anaviy udumlar bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirib, ularning estetik didini boyitadi.

Bundan tashqari, bayram marosimlari orqali bolalar insoniy fazilatlar — do'stlik, mehr-shafqat, saxovat va hamkorlik tushunchalarini amaliy hayotda his etib, ularni ongiga singdiradilar. Bayram muhitidagi quvonch va ijobiy ruh bolalarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni jamiyat hayotiga faol moslashishga undaydi. Bayram marosimlari jamiyatning madaniy hayotini boyituvchi muhim an'ana bo'lib, ular orqali yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijtimoiy faollikni oshirish hamda ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilindi.

Asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida yetib kelayotgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlar milliy mafkuraviy g'oyalarni singdirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Mustaqillik bayrami, Navro'z, o'qituvchilar va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kunlari kabi marosimlar jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun qo'shish imkonini beradi, shundan oqilona foydalanish talab etiladi.

Hozirgi kunda milliy an'analarni nafaqat o'rgatish va targ'ib qilish, balki to'y-tomoshalar, odat va udumlarni ixchamlashtirish, isrofgarchilik va dabdabozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu urf-odat va an'analarning asosiy qismi oilada, oila a'zolarining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Shu sababli har bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi.

Masalan, insonparvar, e'tiqodli, bag'rikeng va mehr-oqibatli shaxslarni tarbiyalashda tolerantlik, oilaviy munosabatlarda insoniylik tamoyillari katta ahamiyat kasb etadi. Har bir o'zbek oilasida qadrlanadigan mehmonnavozlik, bolalarni tarbiyalashga oid an'analar, yil fasllariga muvofiq oila a'zolari ishtirokidagi hasharlar, chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar — bularning barchasi ezgulikka, sog'lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, oilaviy an'analar va udumlar shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishida asosiy platforma vazifasini bajaradi. Oilada bolaga mehr-muhabbat, sabr-toqat, hurmat va xayrixohlik kabi fazilatlar singdiriladi. Masalan, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlarda, yil fasllariga muvofiq hasharlar va oilaviy yig'ilishlar orqali ijtimoiy mas'uliyat va jamiyatga foyda keltirish tamoyillari bolalarga tabiiy ravishda o'rgatiladi.

Bundan tashqari, milliy urf-odatlar va bayramlar shaxsning milliy o'zligini rivojlantirish, milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, Xotira va qadrlash kunlari kabi marosimlar shaxsni tarixiy ong va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish imkonini beradi. Olimlarning ta'kidlashicha, milliy an'analar shaxsda madaniy intellektini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, oilaviy tarbiya va milliy an'analarning uyg'unligi shaxsning global jarayonlarga moslashuvchanligini oshiradi, lekin milliy ildiz va qadriyatlarni saqlashni ham kafolatlaydi. Masalan, mehmonnavozlik, oilaviy yig'ilishlar, bolalarning tarbiyasi bo'yicha an'anaviy marosimlar sog'lom ijtimoiy muhit yaratadi, oilada hurmat va bag'rikenglikni kuchaytiradi, shuningdek, avlodlarni ezgulik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Shunday qilib, milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati nafaqat shaxsning ma'naviy rivojlanishi, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir oilaviy an'ana va urf-odat mafkuraviy tarbiyaning vositasi sifatida, avloddan-avlodga uzluksiz yetib borishi kerak. Shu yo'l bilan shaxs

axloqiy, madaniy va milliy jihatdan yetuk, jamiyatga foydali va Vatanga sadoqatli inson sifatida shakllanadi.

Pedagogika va ijtimoiy-falsafiy qarashlarda qadriyat tushunchasi inson hamda jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida talqin etiladi. U ma'lum bir millat yoki ijtimoiy guruhning ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlariga mos keladigan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni o'z ichiga oladi. Qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi shakllanishida, uning axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ular jamiyat taraqqiyotini baholashda muhim mezonlardan biri sifatida qaraladi.

Milliy qadriyatlar esa xalqning tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan tajribasi, boy madaniy merosi va ma'naviy qarashlarining mahsulidir. Ular turli urf-odatlar, an'analar va rasm-rusumlar orqali avloddan avlodga o'tib boradi. Bunday qadriyatlar insonning qadr-qimmatini oshirishga, uning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qadriyatlar faqat ijtimoiy ong mahsuli bo'lib qolmay, balki tarbiya jarayonining asosiy mazmunini belgilovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, oila muhitida qadriyatlarning shakllanishi uzluksiz va tizimli jarayon sifatida kechadi. Oilada bola tarbiyasi jarayonida dastlabki axloqiy va ma'naviy tasavvurlar shakllantirilib, kundalik hayot faoliyati orqali singdirib boriladi. Jumladan, salomlashish madaniyati, to'g'ri va sog'lom ovqatlanish odatlari, kiyinish madaniyati, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qilish qoidalari, jamoat joylarida o'zini tutish madaniyati kabi xulq-atvor me'yorlari bolada ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mazkur qadriyatlar bolaning axloqiy ongini rivojlantirish, o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishi, mas'uliyat, intizom, hurmat va odob-axloq kabi sifatning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oilaviy tarbiya orqali singdirilgan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar keyinchalik ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitda mustahkamlanib, shaxsning barqaror hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, jismonan sog'lom, o'z xalqiga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasining boy ilmiy-amaliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish mazkur fanni o'rganishning asosiy maqsadini belgilaydi. Ayniqsa, milliy va ma'naviy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish bugungi kunda muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, qadriyatlar xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi mahsuli bo'lib, ular bevosita xalq tomonidan yaratiladi va avloddan avlodga uzluksiz ravishda meros qilib qoldiriladi. Shu sababli xalq pedagogikasi tizimida qadriyatlar muhim tarbiyaviy omil sifatida pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilinadi va ular turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, oilaviy qadriyatlar, mehnatga oid qadriyatlar, kundalik turmush madaniyatini ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiy-estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga doir qadriyatlar hamda ma'naviy-ruhiy qadriyatlar shular jumlasidandir.

Xususan, oilaviy qadriyatlar oila institutining barqarorligini ta'minlovchi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-oqibatga asoslangan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bunda kattalarga hurmat ko'rsatish, kichiklarga izzat-ikrom bilan munosabatda bo'lish, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi hamjihatlik va mehr-muruvvat kabi fazilatlar muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar xalqimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan bo'lib, ular yosh avlodni sog'lom, jismonan chiniquqan, jasoratli hamda vatanparvar shaxs sifatida voyaga yetkazishga qaratilgan tarbiyaviy usul va vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlar bolaning jismoniy rivoji, sog'lig'ini mustahkamlash hamda irodaviy sifatlarini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik qadriyatlar xalqning madaniy merosini ifodalovchi muhim tarbiyaviy omil bo'lib, unga xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik turlari, milliy musiqa va raqs san'ati, qo'shiqchilik an'analari, tasviriy san'at namunalari, milliy

bayramlar, urf-odat va an'analar, to'y-tomoshalar, marosimlar, shuningdek, milliy kiyinish madaniyati kiradi. Mazkur qadriyatlar shaxsda go'zallikni his etish, estetik did va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantiradi.

Ma'naviy-ruhiy qadriyatlar jamiyatda insoniy fazilatlarining qaror topishiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy mezonlar majmuasi bo'lib, ular mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehr-shafqat, muruvvat va saxovat kabi axloqiy sifatlarni qamrab oladi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar esa jamiyat barqarorligini ta'minlovchi tushunchalar tizimi sifatida adolat, tinchlikparvarlik, erkinlik, do'stlik va tenglik g'oyalari o'zida mujassam etadi.

Mehnat qadriyatlari xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari hisoblangan hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatlari orqali namoyon bo'lib, insonda kasbga hurmat, halol mehnatga sadoqat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi. Maishiy turmushga oid qadriyatlar esa milliy taomlar, xalq tabobati, sharqona mehmondo'stlik kabi an'analar orqali xalqning kundalik hayot tarzini ifodalaydi.

Madaniy-ma'rifiy qadriyatlar xalqning tarixiy-ma'naviy merosini aks ettiruvchi yodgorliklar, maqbaralar, tarixiy ansambllar, masjid va madrasalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular yosh avlodning tarixiy xotirasi va ma'naviy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-ma'naviy qadriyatlar esa insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ilmiy bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bular qatoriga mantiq, falsafa, riyoziyot, handasa (geometriya), jabr va muqobala (algebra), jug'rofiya, ilmi nujum (astronomiya), adabiyot hamda ulum al-islom kabi fanlar kirib, ular tafakkur taraqqiyoti va intellektual salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Halollik va poklik tushunchalari esa yosh avlod ongiga ertaklar, afsonalar orqali chuqur singdiriladi. Masalan, "To'g'rilik – elga yuksaklik" g'oyasi asosida hikoyalar tahlili, obrazlar orqali axloqiy qadriyatlar beriladi. Ota-onani e'zozlash, mehr-oqibat va muruvvat, bayramlar va urf-odatlariga hurmat kabi qadriyatlar o'quvchilarda oila, jamoa va jamiyat oldida mas'uliyatni his qilish, boshqalarga

mehr-muruvvat bilan munosabatda bo'lish, qadimiy an'analarni qadrlashni o'rgatadi.

Dars davomida "Navro'z bayrami", "Sumalak pishirish", "Boy-bola" ertagi kabi milliy mavzularda suhbatlar, rolli o'yinlar tashkil etiladi. Barcha yuqoridagi qadriyatlar xalq og'zaki ijodida, maqollarda, afsonalarda, hikmatli so'zlarda mujassam. Tarbiya jarayonlarida bu manbalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy olamini shakllantirishda juda muhim.

Qadriyatlar haqida so'z borar ekan avvalo inson eng oliy qadriyat ekanligini unutmashimiz lozim. Inson qadrlanmagan yurtda boshqa qadriyatlarga o'rin ham yo'q. Mustaqillikka erishgunimizgacha bo'lgan davrda biz o'zligimizni unutayozdik. Asli kim ekanimiz, bizning kelib chiqishimiz kimlarga borib taqalishi, dinimizning asli mohiyati nima ekanligi yodimizdan ko'tarilgandek edi. To'g'rirog'i majburan kuch bilan yodimizdan chiqarildi. Kommunizm g'oyasini ilgari surilgan bu davrda milliylik to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas edi.

Kommunistik mafkura ijodkorlari qarashlarida inson qanday tuzum yoki jamiyatda yashamasin, teng taqsimlanmasligini, asosiyi, ular teng yaratilmaganligini (tug'ilganda chaqaloqlarning panjalari teng emasligi, teng yashash uchun panjalari teng chaqaloqlar tug'ulishi kerakligi); birining zuvalasi (loyi) pishiq, biriniki xom; birining asli - nasli toza, biriniki - nopok, nokas, nojins ekanligini inkor qilindi.

Mustaqillik bizga erkimiz bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimiz, an'alarimizni ham qaytarib berdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ma'naviyatga, ma'rifatga ehtiyoj yuqori bo'ldi. Sababi kishilar asli o'zligini yunutayozgan bir sarhadga kelib qolgan edi. Avvalo inson o'zini, o'zligini anglashi kerak, shundagina atrofni teran ko'z bilan kuzata oladi. Hazrati Navoiyning shunday so'zlari bor:

El nechuk topg'ay menikim,

Men o'zimni topmasam

Darxaqiqat inson avvalo o'zini anglashi, A'lloh nima sababdan yaratgan ekanligini tushunib yetmog'i kerakdir. Asli barcha inson asl fitratda yaratiladi, qanday dunyodan o'tishi esa tarbiyaga bog'liqdir.

Qadriyat - arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "qiyamat", "ahamiyat", "qimmatbaho buyumlar", "xalq boyligi" degan ma'nolarni anglatadi. Qadriyat falsafiy jihatdan esa "kishi uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan shakllar, holatlar, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, sifatlar, talab, tartiblarning qadrini ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya" hisoblanadi

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, ma'daniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, hurlik, ijtimoiy tenglik, Ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sofada qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan.

Qadriyat ajdodlarimizning ming yillik orzu umidlari, ezgu maqsadlari mujassamlashgan niyatlari ro'yoblaridir. Qadriyatlarimiz millatimiz ko'zgidir. Dunyoning qaysi nuqtasida bo'lishimizdan qat'iy nazar bizga faxrdir. O'zbekiston qahramoni, shoir Abdulla Oripov ta'kidlagandek

Qayda bo'lsam, boshda do'ppim

G'oz yuraman, gerdayib

Darxaqiqat bizning yurish turishimiz, turmush tarzimiz, kiyinishimizdan tortib kundalik odatlarimizning barchasi qadriyat hisoblanadi.

Hayotimiz shiddatli tus olib borar ekan yoshlar shu shiddatli oqimga qo'shilib oldinga o'zayotganini ko'rishimiz mumkin. Inson qanchalik zamonga moslashaversa shunchalik o'zligidan yiroqlashayotgandek goyo.

Mana shunday tahlikali, shiddatli, turli hil xurujlarga boy davrda har bir millatning eng oliy maqsadi yoshlarining tarbiyasi bo'lib qoldi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak qaysiki millat o'z qadriyatlari, ma'daniyatiga sodiq qolib

mustahkam yo'lida sobitqadam bo'lgan bo'lsa, ana o'sha millat yuksaklikka erishgandir.

Milliy qadriyatlar insonning kundalik hayoti xalqning turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar orqali xalqqa, uning ma'naviyatiga, ma'rifatiga baho beriladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning tasavvuri, dunyoqarashining shakllanishi ham aynan shu milliy qadriyatlar orqali sodir bo'ladi. Milliylikini yo'qotgan millat ham yo'q bo'ladi. Sababi millatning o'zagi, jon tomiri milliy qadriyatlari, urf-odat, an'analaridir.

Milliy qadriyatlarimizni obektiv anglashda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bitta qadriyatning mohiyati, ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyatlar turlari:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq qadriyatlar.
2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyat zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyatlari va iste'dodlari namoyon bo'ladigan qadriyatlar
4. Kishilar o'rtasidagi jamiyatchilik, hamkorlik, xayrixoxlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Bundan tashqari qadriyatlarni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishimiz ham mumkin.

- ❖ Umuminsoniy qadriyatlar
- ❖ Mintaqaviy qadriyat

- ❖ Milliy qadryatlar
- ❖ Diniy qadryatlar

Milliy ma'naviy qadryatlar - ijobiy axloqiy sisatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadryatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Milliy qadryatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Milliy g'oya qadryatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish odamlar ongi va qalbiga milliy qadryatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini nuqtai nazardan mavjud ma'naviy qadryatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi¹. Demak qadryatlarning xilmal xil turlari mavjud bo'lib: milliy, madaniy, ma'rifiy, diniy, moddiy, ma'naviy hamda boshqalarni kiritishimiz mumkin. Inson yaratilibdiki qadryatlarga ehtiyoj sezadi. Aslida inson va uning aziz joni eng oliy qadryat hisoblanadi. Inson qadr topmagan yurtda boshqa qadryatlarga o'rin qolmaydi. Dunyoda turli millat va elat bor. Barchasining o'ziga xos qadryatlari mavjud. Bular bir biriga o'xshamaydi va bir birini takrorlamaydi.

Bugungi zamonaviy bilimga chanqoq yoshlar ilm istab dunyo kezmoqda. Turli yurtlar ilm chashmasida suv ichmoqda. Shu sababdan ko'p yoshlarimiz bir necha yillab chet ellarda istiqom qilishlariga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida ularning milliy an'analriga, qadryatlariga munosabatini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Inson so'zining ma'nosi unutuvchi so'zi ma'nosiga yaqindir. Insonga bot bot takrorlab turilmasa har sohada o'z an'analarni, uning naqadar biz uchun muhimligini unutishi mumkin. Bugun qadryatlarimizga befarqlik, ularni "eskilik

¹ Ergashev I. va boshqa. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqich uchun darslik. - Toshkent: Akademiya, 2005, 195-200-betlar

sirqiti" deb qaralishiga qaysidir ma'noda chet elda yillab ta'lim olib qaytayotgan yoshlarning zamonaviylashgan dunyoqarashi ham ta'sir etishi tabiiy hol.

Ular bizning qadryatlarimiz allaqachon urfdan qolgan keraksiz odatlar deb fikrlaydilar. Buning o'rniga o'zlariga ma'qul zamonaviy yurtlarning "ma'daniyat"ini afzal ko'rishadi. Masalan, islom dinida oila muhim va aziz hisoblangan. Nikoh Payg'ambarimiz (s.a.v.) dan qolgan me'ros sunnat amal hisoblanadi. Oila muqaddas, uning a'zolari barchasi birdek qadrlangan.

Ammo g'arb ma'daniyatiga taqlid qilayotgan yoshlar oila insonning maqsadlariga yetishishda, karerasini yo'lga qo'yishga halal beradigan ortiqcha yuk deb qaraydilar. Bu esa g'arazli kishilarning "ommaviy ma'daniyat" niqobi ostida yashiringan millatning ichidan yemirishga uruniyatgan chirkin niyatlarini oqibatidir. Oila qurishning o'rniga bir jinsli nikohni targ'ib qiluvchi g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishmoqda. Bunday jirkanchlikning yuqori cho'qqisi bo'lgan g'oyalar sezdirmasdan millatni yo'q qilishga urinayotgan kimsalarning yashirin qurolidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "bundan buyon qurollar emas mafkuralar jangi bo'ladi. Yadroviy qurollar emas, g'oyaviy qurollar mafkuraviy poligonlarda jang qilishadi".

Bunday hol albatta har birimizni sergaklantirishi lozim. Bugungi zamon loqaydlikni, befarqlikni kechirmaydi. Daholar ta'kidlaganlaridek "Dushmaningdan qo'rqma nari borsa senga qarshi urush ochishi mumkin, do'stingdan qo'rqma nari borsa xiyonat qilishi mumkin, ammo loqayd kishidan qo'rq, u o'z loqaydligi bilan ko'plab falokatlarini keltirib chiqaradi".

"Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebaho boylik - ko'pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealikka dahldorlik tuyg'usi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr - oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va

ogoh bo'lish mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash - xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Biz mamlakatimiz suverenteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz", - deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarining birida.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov: "Fikr qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan ko'ra ham ayanchliroqdir", - deya ta'kidlaganlarida naqadar haq edilar. Zotan inson mustaqil fikriga ega bo'lmasa, tafakkur qilmasa, yonidan o'tgan har karvonga ergashuvchi avom bo'lsa bu juda katta fojeadir. Fojeaki uning oqibati qurt daraxtni ichidan yemirgandek millatni, xalqni yemiradi va alal oqibat o'z tiliga, erkiga, o'y va fikriga ega bo'lmagan manqurtga aylanadi.

Inson inson, jamiat jamiat bo'libdiki, diniymi, dunyoviymi, kattami kichikmi, oddiy xursandchilikmi, qanday shaklda yoki tarzda bo'lmasin, bayramsiz, tantanasiz yashamagan bo'lsa kerak. Zotan, hayot g'am - tashvish va xursandchilik, alam - qayg'u va shodlik baxsh etgan. Shu sabab insonlar hayotda tabiiy yuz beradigan buyuk voqeliklarni yoki o'zlari tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarini, ulug' kunlarini hamisha bayram qilganlar va bu an'analar hozir ham izchil davom etib kelmoqda. Ma'limki, bayramlar shunchaki yig'in, dabdaba, xursandchilik, o'yin - kulgi emas, shu bilan birga asosiy maqsad:

1) o'tgan kunlarimizda qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz va g'alabalarimizni tantana, sarhisob qilish;

2) bayramlarni ertangi kunimizni rejalashtirishda, olg'a qarab ketishimizda, xususan, mafkuramizni shakllantirish, mustahkamlashda ma'naviy kuch, ruhiy quvvat sifatida xizmat qildirishdir. Sho'roviy mafkura mahalliy xalqlarni qaramlikda saqlash maqsadida, avvalo, ularning milliy g'ururini so'ndirish: tarixini, ma'daniyati, marosimlari, e'tiqodi, sharqona axloq - odobi kabilardan begonalashtirish, ongidan o'chirish kerakligini o'yab topdi. Ayanchlisi, bu jarayon

zohiran dinga qarshi kurash shiori ostida boshlangan bo'lsa-da, ayni paytda, insonga ilohiy in'om sifatida ato etilgan, uning millatligini belgilaydigan, ma'naviy mulki, ruhiy quvvati, birlashish, kurashish va rivojlanish quroli hisoblangan: ibodat, iymonu e'tiqod va muomala vositasi bo'lgan tiliga, so'ziga, jonbaxsh nutqiga ham "diniy tamg'a" bosish - badnom qilishga, uni go'yo diniy, zararli, eskirgan yoki varvar, vulgar va iboralardan tozalashga kirishildi. Masalan, ovqat oldidan Bismilloh, oxirida Omin: nutqiy kamtarlik maqsadida Xudo xohlasa, nasib bo'lsa, inshaalloh; azadorlarga hamdardlik yuzasidan Allohning irodasi, Xudo rahmat qilsin demoq; yaxshilik tilash maqsadida Alloh yor bo'lsin demoq; qadimiy adbiy janr bo'lgan Alla, "yo Ramazon" aytmoq; ota onaga qiblagoh, volidai muhtarama deb murojat qilmoqlik dindorlik, qoloqlik, ma'daniyatsizlik, ayb hisoblandi. Vaholanki buning bari bizning milliy qadryatlarimiz edi.

Buning o'rniga tilimizda shuncha go'zal sinonimlar bo'la turib, bir-birining ism- familyasini atab chaqiruvchi er-xotinlar, yoki eriga "aka", "o'rtoq" deb murojaat qiluvchi ayollar, maktublarini sog'ligingizni tabiatdan (Xudodan emas) so'rayman, Assalomu alaykum! Va alaykum assalom! o'rnida salom! Salom! Duo o'rnida "Butun dunyo proletarlari, birlashingiz"! deyuvchi ziyoli, ma'daniyatli odam sifatida e'tirif etildi.

Xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach o'z taqdirini chinakkam egasiga, o'z tarixining muallifiga, o'z kelajagining bunyodkoriga aylandi. O'zining milliy urf odat va qadryatlari bunyodkori bo'ldi. Milliylik qon qoniga singib ketgan bu tanti elning ko'kragiga shamol tegdi. Milliy bayramlar, an'analar, diniy marosimlar qayta tiklandi. Masjidlarida azonlar yangraydigan tonglar otdi, onalar allasi yangraydigan tunlar qaytdi. Farzandiga xalq dushmani deb tanishtirgan daholarimiz asli kim ekanligini ertaklaru cho'pchaklar etib madh etildi. Dinimizda muqaddas bayram hisoblangan hayit bayramlari mamlakat bo'ylab keng nishonlanadigan bo'ldi.

Yoshlar tarbiyasida qadryatlarimizning o'rnini beqiyosdir. Ularning ongu shuurini milliylik bilan boyitsak, hayot relsini diniy qadryatlarimizga asoslangan

tarbiyaviy tizginga solsak bu bizning eng katta erishgan yutug'imiz hisoblanadi. Zero tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir.

3.3. Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni SEL texnologiyasi asosida shakllantirish.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshayotgan tub islohotlar mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq o'quvchilarning har tomonlama komil inson bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Buning uchun o'quvchilar ongida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish, ularga milliy qadriyatlarimizni singdirish lozim. Yoshlarga ta'lim tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida ham yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik, kattalarga hurmat, hamjihatlik, mehr-oqibat, mas'uliyat va fuqarolik burchini jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, SEL texnologiyasini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish didaktik muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlarida ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni tiklash, ularni yosh avlod ongiga singdirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni Yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi qarorlar va Davlat ta'lim standartlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki bola shaxsi aynan shu bosqichda shakllana boshlaydi, ongida dunyoqarash, axloqiy mezonlar, ijtimoiy munosabatlar haqidagi ilk tasavvurlar qaror topadi.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni takomillashtirish zamonaviy o'qitish usullari bilan hamohang tarzda olib borish orqali yuqori

natijalarga olib borish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni takomillashtirishda aynan SEL texnologiyasidan foydalanish xorijda anevha ommalshganiga qaramasdan, O'zbekiston ta'lim tizimida bu hali hanuz Yangilik bo'lib kelmoqda. O'quv dasturiga SELni kiritish orqali biz o'quvchilarning hissiy aql-zakovati, empatiya va o'zini tuta bilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam bera olamiz.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan, ularning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, diniy va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho ma'naviy boylikdir. Milliy qadriyatlar orqali millat shaxsining tili, tarixi, kechmishi namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar har bir insonning shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida, mustahkam ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Aynan shu bois, milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni qadrlashga va hurmat qilishga o'rgatish ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ijtimoiy-emotsional o'qitish g'oyasi ilk bor XX asr 60-yillarida AQSHda James Comer tomonidan asoslangan bo'lib, shaxsiy farovonlik, emotsional intellekt va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan. Keyingi tadqiqotlar ushbu yo'nalishda o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, boshqarish, ijtimoiy moslashuv, pozitiv munosabatlar va mas'uliyatli qaror qabul qilishi kabi kompetensiyalarni ishlab chiqdi. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) ramkasi SEL nazariyasining etakchi modeliga aylandi va besh asosiy kompetensiyani belgilaydi:

- O'z-o'zini anglash (self-awareness)
- O'z-o'zini boshqarish (self-management)
- Ijtimoiy anglash (social awareness)
- Munosabatlarni shakllantirish (relationship skills)
- Mas'uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making)[3]



CASEL 5 - bunda har bir kompetensiya alohida tushuntirilib, o'quvchilarning individual, ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatga erishishidagi muhim omil sifatida qaraladi.

A.Kadrekova va M.Akniyazovalarning fikricha boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni o'rgatish o'quv dasturlarining turli fanlariga integratsiya qilinishi, shuningdek, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar orqali ham samarali amalga oshiriladi.

Pedagogik olim B. Qurbonova o'zining tadqiqot ishida O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

- 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

“Milliy qadriyatlarni ona tili darslariga singdirish madaniy jihatdan boy mazmun tanlash, matnlarni tahlil qilish, rol o'ynash bilan shug'ullanish, fanlararo

usullarni integratsiyalash va tarixiy misollardan foydalanishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvdir. Bu usullar talabalar orasida milliy o'zlik va madaniy qadrlash tuyg'usini singdirishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu qadriyatlarni singdirish jarayoni insonning merosini chuqur tushunish va milliy o'zligi bilan faxrlanish hissini rivojlantirishda juda muhimdir”, - deya ta'kidlaydi M.Sayidova o'zining tadqiqot ishida.

Shuningdek, Sh.Kurbonovaning fikricha SEL ni O'zbekiston ta'lim tizimi va jamiyatiga to'liq integratsiya qilish nafaqat bolalarning ruhiy va ijtimoiy farovonligini oshiradi, balkim milliy taraqqiyot va baraka uchun mustahkam tayanchni yaratadi. Ingliz va Xitoy tajribalarini qayta tahlil qilib, ularning yutuq va muammolaridan anglash mumkinki, systematic va madaniyatga moslashtirish SEL muvaffaqiyat kalitidir.

Xorijiy olimlar Greenberg, M., Weissberg, R., O'Brien, R., Zins, M., Fredericks, J., Resnik, L., Elias, H. larning fikriga ko'ra, SEL replikasiya, dasturlarni muvofiqlashtirish, kasbiy rivojlanish va barqarorlik haqidagi bu savollar hozirda yetarlicha o'rganilmagan. Biroq, uzoq muddatda ular eng axborotli bo'ladi, chunki butun mamlakat bo'ylab maktablar barcha bolalarning ijtimoiy, hissiy, jismoniy va intellektual rivojlanishini yaxshilash uchun muvofiqlashtirilgan profilaktika dasturlarini amalga oshiradilar.

SEL texnologiyasi milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashganda tarbiyaviy samaradorlik sezilarli darajada ortadi. Xorijiy tadqiqotlarda SEL universal model sifatida talqin qilinsa-da, milliy ta'lim tizimida uni lokal qadriyatlar asosida moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

SEL va Tarbiya darsligi integratsiyasining grafik-jadval modeli (3-sinf)

Kognitiv-emotsional bosqich	His-tuyg'ularni tanish va tushunish	Odob-axloq tushunchalari	Suhbat, savol-javob, tushuntirish	O'zini anglash, emotsional xabardorlik
Ijtimoiy-kommunikativ bosqich	Muloqot va hamkorlik ko'nikmalari	Hurmat, mehr-oqibat	Guruhli ish, rolli o'yinlar	Ijoiy ijtimoiy munosabat
Xulqiy-boshqaruv bosqichi	O'zini boshqarish, hissiy nazorat	To'g'ri xulq-atvor, mas'uliyat	Vaziyatli topshiriqlar	Mas'uliyatli va ongli xulq

SEL va tarbiya faoliyatlari nazariy modeli

SEL kompetensiyalari	Tarbiya faoliyatlari	Kutilayotgan natijalar
O'zini anglash	Milliy qadriyatlar haqida bilim berish	Vatanparvarlik va milliy g'urur
O'zini boshqarish	Axloqiy me'yorlar va urf odatlar	Axloqiy xulq atvor
Ijtimoiy ong	Loyihalar va rolli o'yinlar	Ijtimoiy mas'uliyat
Munosabatlarni boshqarish	Guruhlar bilan ishlash, muloqot va hamkorlik darslari	Do'stlik va hamjihatlik
Ma'suliyatli qaror qabul qilish	Amaliy va hayotiy vaziyatlar	Tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qila olish


3-sinf tarbiya darsligi va SEL integratsiyasi

3-sinf Tarbiya darsligi va SEL



“SEL” asosida milliy qadriyatlarni shakllantirishning besh bosqichli metodik tizimi (3-jadval);

3-jadval



4-MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI INTEGRATSIYASI



Tayanch tushunchalar: Ta'lim, tarbiya, oila, mahalla, hamkorlik, hamkorlikda o'qitish, konsepsiya

Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim!
(Abdulla Avloniy)

Reja:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va maktabning o'zini
2. Oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi mazmuni
3. Hamkorlikni kuchaytirish yo'llari va muammolari

Bugungi globallashev sharoitida shaxs tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni faqatgina maktab doirasida emas, balki oila va mahalla kabi ijtimoiy institutlar bilan uzviy hamkorlikda amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi. Shu bois, zamonaviy pedagogika fanida oila-mahalla-maktab integratsiyasi konsepsiyasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya (lot. integratio – birlashtirish, yaxlitlash) deganda, ta'lim-tarbiya jarayonida barcha subyektlarning yagona maqsad yo'lida muvofiqlashtirilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu hamkorlik shaxs kamolotini ta'minlovchi uzluksiz pedagogik muhitni yaratadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda birgina maktabning o'zi yetarli emas. Bu jarayonda oila, mahalla va ta'lim muassasasi o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola shaxs sifatida shakllanish jarayonida bir vaqtning o'zida bir necha ijtimoiy muhit ta'sirida bo'ladi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish oila, mahalla va maktabning hamjihatligiga bog'liqdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini har sohasida bo'layotgan o'zgarishlar ta'lim sohasiga ham o'z ta'siri o'tkazmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qaratilayotgan bu o'zgarishlar yoshlarni yanada ruhlantirmoqda. Yoshlarni ma'naviyatli, ma'rifatli, malakali qilib tarbiyalash jarayonida birgalikda ish olib borish maqsadida 1993-yil "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta e'tibor qaratganlar. Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek yosh kadrlarni milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizdan qolgan bilim xazinasi asosida tarbiyalash yosh kadrlarimizda vatanparlikka, hur fikrlashga o'rgatishga juda katta xizmat ko'rsatadi. O'zbekiston bilim darajasidan juda boy davlat hisoblanadi. Chunki juda ko'plab buyuk shoirlar o'zbek tilida ijod qilishgan. Bu ijod namunalari asosida yoshlarga bilim tarbiya berish ularga ajdodlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborini oshiradi. Milliy ruh asosida tarbiyalash kadrlarda mustaqilligimizni qadrlashga, vatan mexrini uyg'otishga xizmat qiladi. O'zbek tilida ijod qilgan buyuk alomamiz Abdulla Avloniy ham ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor bilan qaraganlar. Ko'plab asarlari ham ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan. Masalan "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" asarlarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta o'zgarishlar kiritmoqda. Shu jumladan oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim mussasalarini keskin ko'payib borayotganini misol qilish mumkin. Shu borada prezident maktablari, xususiy universitetlar faoliyat yuritib boshlashlari ta'lim sohasidagi o'zgarishlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlodga bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni o'rgatish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Albatta faqatgina o'qituvchi emas balki o'quvchining ota-onalarini ham ma'suliyatlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi boshlang'ich sinflardan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonida bo'layotgan Yangiliklar haqida ma'lumot

berib borishlari o'quvchilarni fikrini o'stirishga xizmat qiladi. O'qituvchi yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ota-ona bilan birgalikda ishlash hamkorligini yo'lga qo'yib olishi zarur. O'qituvchi qanday qilib ota-onalar bilan hamkorlikni o'rnatishi kerak? Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi: 1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi; 2. O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi.

Yosh avlodni odob-axloqli, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida ularning yosh xususiyatlari hamda individual xarakter jihatlari inobatga olish muhimdir. Chunki bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini hisobga olmasdan turib, tarbiya jarayonida ko'zlangan natijaga erishish qiyin. Oila, mahalla va maktabning o'zaro hamkorligi asosida tarbiya ishlari yo'lga qo'yilganda quyidagi tamoyillarga amal qilish samaradorlikni oshiradi: tarbiya subyektlari faoliyatining uyg'un va hamjihat bo'lishi; bolaga nisbatan hurmat va talabchanlikning muvozanati; jarayon ishtirokchilarining teng huquqliligi hamda yuksak mas'uliyati; har bir faoliyatda milliy va davlat manfaatlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi.

Birinchi bosqich – yosh oilalar bilan ishlash.

Yangi tashkil topgan oilalarda farzand tarbiyasi borasida yetarli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Shu maqsadda yosh ota-onalarga bolani parvarish qilish, uning sog'lom o'sishi va ma'naviy kamoloti haqida tibbiy-pedagogik hamda falsafiy tushunchalar berish muhimdir. Bu jarayonga shifokorlar, tajribali ota-onalar, mahalladagi hurmatli ayollarni jalb etish, "yosh ota-onalar maktabi" faoliyatini yo'lga qo'yish ijobiy natija beradi. Maktabgacha yosh davrida bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash asosiy vazifadir. Ularni rasm chizish, hikoya qilish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, harflarni tanish, qo'shiq kuylash, raqs tushish va turli o'yinlarda faol ishtirok etishga o'rgatish orqali mustaqil o'rganish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Shu maqsadda maktabga tayyorlov guruhleri va yakshanba maktablari ishini samarali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi bosqich – kichik maktab yoshi (6–11 yosh).

Bu davrda bolalarning jismoniy sog'lomligi, ma'naviy-axloqiy shakllanishi va ijtimoiy moslashuviga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning qiziqishlari va iste'dodini aniqlash, mas'uliyat hissini rivojlantirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga o'rgatish muhimdir. Shuningdek, atrof-muhitga ongli munosabat, do'stlik, baynalminallik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – o'smirlilik davri (11–16 yosh).

Mazkur bosqichda o'smirlarning bilimga qiziqishi va tafakkur salohiyatini inobatga olgan holda ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish zarur. Ularning jismoniy chiniqishi, mehnat faoliyati orqali kasb-hunarga yo'naltirilishi, jamoa ichida o'z o'rnini topishiga ko'maklashish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-ona oldidagi javobgarlikni anglash, mustaqil fikrlash va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Shu tarzda yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda izchillik, bosqichma-bosqichlik va o'zaro hamkorlikka tayangan yondashuv eng maqbul yo'l sanaladi.

To'rtinchi bosqich – 16 yosh va undan yuqori davr.

Mazkur bosqichda yoshlarning zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni egallashi, ongli ravishda kasb tanlashi hamda mustaqil hayotga puxta tayyorgarlik ko'rishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning qobiliyat va imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim olishi, tanlagan yo'nalishi bo'yicha mehnat bozorida o'z o'rnini topishi, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifadir. Shu bilan birga, Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglash, huquq va burchlarini bilish,

mustaqil oila qurishga ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyor bo'lish kabi masalalar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Hamkorlik faoliyatini samarali boshqarish maqsadida hududlarda mahalla faollari, hurmatli ota-onalar hamda ta'lim muassasalarining tajribali pedagoglaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur kengash o'z oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, turli yo'nalishlarda ishlovchi kichik tashabbuskor guruhlarini shakllantirishi mumkin.

Kengash faoliyati aniq muddatga mo'ljallangan dastur asosida yo'lga qo'yilib, ushbu dastur mahalla yig'inida muhokama qilinib tasdiqlanishi zarur. Amalga oshiriladigan tadbirlar turli shakllarda tashkil etilishi mumkin: davra subhatlari, muayyan mavzu yoki muammoga bag'ishlangan yig'ilish va kengashlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, oqsoqollar maslahatlari, mahalla yig'inlari, ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, ijodiy bellashuvlar, uchrashuvlar hamda muhim sanalarga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir. Bunday faoliyat mahalla ahlini birlashtirish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Jamoatchilik kengashi o'z faoliyati yuzasidan har chorakda mahalla aholisi oldida hisobot berib borishi lozim. Zarurat tug'ilganda ta'lim muassasalari, mahalla hududidagi tashkilot va korxonalar hamda boshqa idoralarning tarbiya sohasida olib borayotgan ishlari yuzasidan axborotlari tinglanadi va ularga metodik hamda amaliy yordam ko'rsatiladi. Bu esa ishlarning izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, farzand tarbiyasiga loqayd munosabatda bo'layotgan ota-onalar bilan profilaktik ishlar olib borish, zarur hollarda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tegishli choralarni ko'rish ham kengash zimmasidagi vazifalardan biridir.

Hamkorlik kengashi mahalla hududida milliy tarbiya an'analarini tiklash, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida maktablar, sport maydonchalari, madaniyat markazlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari

faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirib boradi. O'tkazilgan tadbirlar tahlil qilinib, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda ommaviy axborot vositalarida yoritiladi. Shu bilan birga, yoshlar tarbiyasiga oid dolzarb masalalar mahalla hududidagi ta'lim-tarbiya muassasalari va tashkilotlar reja hamda dasturlariga kiritilishida o'zaro hamjihatlik ta'minlanadi. Ta'lim va tarbiya sohasida davlat tomonidan qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarning samarali ijrosini ta'minlash uchun oila, mahalla va maktab hamkorligi o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

Tashkil etilayotgan tadbirlar puxta rejalashtirilgan, ishtirokchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, mazmunan teran, mantiqan izchil, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan hamda ommabop bo'lishi lozim. Ular amaliy jihatdan lo'nda, estetik tomondan mukammal shaklda tashkil etilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Umuman olganda, maktab, oila va mahalla hamkorligida olib borilayotgan ishlar hududdagi barcha yosh toifalarini qamrab olishi, ularning ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda yo'lga qo'yilishi zarur. Ana shundagina yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash yo'lidagi sa'y-harakatlar o'zining yuqori samarasini beradi.

Maktab, oila va mahalla hamkorligida yo'lga qo'yiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunan boy va tarbiyaviy jihatdan chuqur bo'lishi lozim. Ular "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobingga balli", "Sog' tanda – sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq hunar oz", "O'g'lim – posbonim", "Hayot – ustoz, xalq – muallim", "O'zbekiston – Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch – mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik – yigitlik maktabi", "Oila baxti – Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz?" kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

Bunday tadbirlar orqali yosh avlod qalbida sog'lom turmush tarzi, ota-onaga hurmat, odob-axloq, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati kabi fazilatlar

mustahkamlanadi. Ayniqsa, xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi, urf-odat va an'analari, milliy madaniyat hamda tarixni o'rganishga qaratilgan faoliyatlar o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi. Mazkur yo'nalishda tashkil etilgan tadbirlarning mazmunli va ta'sirchan bo'lishi ularning nafaqat yoshlar, balki kattalar xotirasida ham yorqin taassurot qoldirishiga xizmat qiladi.

Mahalla hududida o'tkaziladigan sport musobaqalari va madaniy anjumanlar yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu esa ularni qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish va iqtidorini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Tarbiyaviy, tashkiliy va metodik ishlarni samarali amalga oshirish uchun har bir oila, mahalla va maktab o'z hududining shart-sharoitini, ijtimoiy muhitini puxta tahlil qilishi zarur. Shu asosda quyidagi hamkorlik yo'nalishlarida amaliy faoliyat yo'lga qo'yiladi:

o'quvchi – o'qituvchi – ota-ona;

maktab – oila – mahalla – jamoatchilik;

oilalari – mahalla – bog'cha – maktab.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan ishlar zamon talablari darajasida tashkil etilib, tizimli ravishda targ'ib qilinishi lozim. Faqatgina o'zaro hamjihatlik va mas'uliyat asosida yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy faoliyat yosh avlodni komil, ma'naviy yetuk va jamiyat hayotida faol shaxs etib voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ma'naviy mezon sifatida buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan hikmatli so'zlari bosh tamoyilga aylanishi lozim. Mazkur g'oya oila, mahalla va maktab hamkorligining ma'naviy poydevori bo'lib xizmat qilsa, tarbiya ishlari yanada izchil va maqsadli yo'lga qo'yiladi.

Bugungi kunda bolalar tarbiyasiga keng jamoatchilikni jalb etish amaliyoti tobora kuchayib bormoqda. Mahallalar, turli nodavlat va jamoat tashkilotlari,

yoshlar harakatlari maktab hamda oilaga tarbiyaviy jarayonda sezilarli ko'mak bermoqda. Ayniqsa, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisining bu boradagi o'rni muhimdir. U maktab joylashgan hududda bolalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muvofiqlashtiruvchisiga aylanadi. Shu maqsadda tashkilotchi o'quvchilarning ota-onalari mehnat qilayotgan korxonalar va muassasalar, jamoat birlashmalari hamda homiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yadi.

Jamoatchilikning tarbiya borasidagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtdagi xulq-atvorini nazorat qilish, ularni ijtimoiy foydali mehnat va tadbirlarga jalb etish, uy vazifalarini bajarishda individual yordam ko'rsatish, oilalarda pedagogik nazorat susayishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etishda ko'maklashish, tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan profilaktik va qayta tarbiyaviy ishlar olib borish, yashash hududlarida sport va madaniy tadbirlar tashkil etish.

Sinf rahbari jamoat tashkilotlari bilan muntazam hamkorlik qilib, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishi zarur. Ayniqsa, ota-onalar qo'mitasi va mahalla faollari bilan doimiy muloqot o'rnatish katta ahamiyatga ega. Bu tuzilmalar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, nazoratsiz qolishining oldini olish, sayohatlar va turli ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda muhim tayanch bo'la oladi. Zarurat tug'ilganda mahalla binosi yoki boshqa ijtimoiy maskanlarda uy vazifalarini bajarish uchun maxsus xonalar tashkil etish ham mumkin.

Har bir umumta'lim muassasasida ota-onalar qo'mitasi faoliyat yuritadi va u tegishli me'yoriy hujjatlar asosida shakllantiriladi. Qo'mita bir yil muddatga ota-onalarning umumiy yig'ilishida saylanadi. Uning tarkibiga har bir sinf yoki guruhdan vakillar kiritilib, ular orasidan rais va kotib belgilanadi. A'zolari tanlashda ularning ma'naviy qiyofasi, mas'uliyati, tashabbuskorligi, obro'-e'tibori hamda bola tarbiyasiga befarq emasligi inobatga olinadi.

Maktab rahbariyati va pedagoglar ota-onalar qo'mitasiga faol, tarbiyaviy masalalarga qiziqadigan, jamoat ishlarida ishtirok etishga tayyor shaxslar

saylanishidan manfaatdor bo'lishi lozim. Sinf rahbarlari esa nomzodlarning maktab hayotida qanchalik faol bo'la olishi, tadbirlarda ishtiroki, tartib-intizomni qo'llab-quvvatlashi kabi jihatlarni oldindan tahlil etishlari kerak. Shuningdek, qo'mita tarkibiga o'z xohishi bilan ishlashga tayyor ota-onalarni jalb etish ham yaxshi samara beradi, chunki ular odatda mas'uliyat bilan yondashadilar.

Ota-onalar qo'mitasi samarali faoliyat yuritishi uchun uning a'zolarining pedagogik savodxonligini oshirib borish muhimdir. Shu maqsadda ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar va boshqa o'quv shakllari reja asosida tashkil etilishi lozim. Ana shunday tizimli yondashuv orqaligina oila, mahalla va maktab hamkorligi mustahkamlanib, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash yo'lidagi sa'y-harakatlar yuqori natija beradi.

Azaldan xalqimiz orasida ilm-ma'rifatga yuksak e'tibor qaratilib kelinadi. Bilim egallagan, tafakkuri teran insonlar jamiyatda hurmat va e'tibor topgan. Shu bois bilim olish va uni yurt ravnaqi yo'lida safarbar etish har bir fuqaroning oliy ma'naviy burchi sanaladi.

Ushbu vazifalarni samarali tashkil etishning eng muhim shartlaridan biri - ta'lim tizimi rivojlangan xorijiy davlatlarning pedagogik tajribasini chuqur o'rganishdir. Xalqaro tajribani puxta tahlil qilish orqali ta'lim jarayonida eskirib borayotgan, zamon talablariga javob bermay qolgan usul va shakllardan voz kechish, ularning o'rniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta'lim mazmunini boyitish va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

5 - MAVZU: TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.



Tayanch tushunchalar: Tarbiya, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, komil inson, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, ta'lim, jamiyat, integratsiya, ijtimoiy hayot

Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.
(Alisher Navoiy)

Reja:

1. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalar.
2. Tarbiya jarayonining tamoyillari.
3. Tarbiya va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liqligi

5.1. Tarbiya jarayonining mohiyati

Davlat rahbari tomonidan kadrlar masalasi dolzarb ekani, barcha sohalarda islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar zarurligi alohida ta'kidlangan. Shu maqsadda ta'lim tizimi izchil ravishda modernizatsiya qilinmoqda. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish orqali bolalarning maktabga tayyorgarligi mustahkamlanmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati esa ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy standartlar asosida takomillashtirilmogda.

Yurtimizda Prezident maktablari, buyuk allomalar nomi bilan ataluvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ijod maktablari hamda Temurbeklar maktablari kabi Yangi avlod o'quv maskanlari tashkil etildi. Ushbu ta'lim dargohlarida xalqaro metodikalar va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilayotgani kelgusida raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

2019-yil 26-noyabrda qabul qilingan "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq, bosqichma-bosqich ravishda maktablarni zamonaviy talablarga moslashtirish rejalashtirildi: 2021-yilgacha ularning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi va 2030-yilga borib 50 foizi Yangilangan tipdagi maktablarga aylantirilishi belgilandi.

Shuningdek, Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish, fan yuklamalarini maqbullashtirish, ta'lim mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish, darsliklar

sifatini oshirish vazifalari ilgari surildi. Maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor yo'nalish etib belgilandi.

Ayni paytda tabiiy va aniq fanlarga ajratilayotgan amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish zarurati mavjud. Rivojlangan davlatlarda matematika, kimyo, fizika va biologiya fanlarida amaliy mashg'ulotlar ulushi 30–50 foizni tashkil etsa, bizda bu ko'rsatkich ancha past edi. Shu bois o'quv dasturlariga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish vazifalari belgilandi. Bugun har qanday jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson kapitaliga qaratilayotgan e'tibor bilan baholanadi. Ta'lim mazmunini takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga yaqinlashtirmoqda. Xorijiy tajribani tahlil qilishda, masalan, Yaponiya ta'lim tizimi alohida e'tiborga loyiq. Bu mamlakatda "iqtidorli o'quvchi" degan alohida tushuncha mavjud emas, chunki har bir bola o'ziga xos salohiyat egasi deb qaraladi. Ta'lim tizimi maktabgacha bosqichdan boshlab boshlang'ich, kichik o'rta, yuqori o'rta maktab hamda oliy ta'lim muassasalarini qamrab oladi.

Boshlang'ich bosqichda o'qituvchilar nafaqat bilim berish, balki bolalarni o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, kamchiliklarini anglash va tuzatishga o'rgatishga ham katta ahamiyat qaratadilar. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. E'tiborlisi, o'qituvchilik kasbi yuqori mavqega ega bo'lib, pedagoglarning mehnati munosib rag'batlantiriladi.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi va ehtiyojmand oilalar farzandlariga davlat tomonidan moddiy yordam ko'rsatiladi. Bunday tizimli yondashuv ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim tizimini yanada rivojlantirish mumkin. Bu esa yurtimizda zamonaviy, bilimli va raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazishning muhim omilidir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining samaradorligi nafaqat maktab faoliyatiga, balki oilaviy tarbiya va jamiyatning umumiy pedagogik madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir. Bu jihatdan Yaponiya va Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yaponiyada oilaviy tarbiya davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Ota-onalar uchun turli metodik qo'llanmalar chop etiladi, ommaviy axborot vositalari orqali pedagogik tavsiyalar muntazam berib boriladi. Bu esa oilada ta'limiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, uy sharoitida bolalar uchun yaratilgan maxsus o'quv joylari e'tiborga loyiqdir. Ular bolalarning mustaqil ishlashi uchun qulay va xavfsiz tarzda jihozlanadi: kitob javoni, yoritish moslamasi, zarur o'quv qurollari va hatto ota-onani chaqirish imkonini beruvchi signal tugmachasigacha mavjud bo'ladi. Bunday sharoit bolada intizom, mas'uliyat va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Yaponiya ta'lim tizimi milliy an'analarga tayanishi bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni ham ijodiy o'zlashtiradi. Xususan, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning zamonaviy pedagogik yondashuvlari milliy tizimga moslashtirilgan holda tatbiq etiladi. Natijada shakl va mazmun uyg'unligi ta'minlanadi.

AQSHda esa ta'lim tizimi 12 yillik bo'lib, boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlardan iborat. Maktablarning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib, ular davlat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Ta'lim jarayonida texnik vositalardan keng foydalaniladi: deyarli har bir sinf xonasida kompyuter va multimedia vositalari mavjud. O'quvchilarga topshiriqlar ko'pincha bosma shaklda taqdim etiladi.

Boshlang'ich bosqichda har yili sinf rahbarining almashishi bolalarning turli pedagogik uslublarga moslashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir o'quvchi uchun maxsus "hisobot kartasi" yuritilib, unda nafaqat bilim darajasi, balki xulq-atvori ham baholanadi. Bu tizim ota-onalar bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Kichik sinflarda qo'llaniladigan "Sevimli o'yinchoq" usuli esa bolalarning nutqini rivojlantirish va erkin fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining haddan tashqari demokratik tus olishi ayrim hollarda bilimni nazorat qilish samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Umuman olganda, har ikki davlat tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi muvaffaqiyati moddiy-texnik baza, oilaviy tarbiya, pedagogik yondashuv va jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati uyg'unligiga bog'liqdir. Ushbu tajribalarni milliy sharoitdan kelib chiqib ijodiy qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi strategik omildir. Ba'zi Yevropa davlatlari, xususan Germaniya va Fransiya bu borada o'z modellarini shakllantirib, yillar davomida takomillashtirib kelmoqdalar.

Germaniya modeli: erta saralash va kasbiy yo'nalish

Germaniya ta'lim tizimining o'ziga xos jihati — o'quvchilarni qobiliyatiga qarab erta bosqichdan yo'naltirishdir. Boshlang'ich ta'lim hamma uchun umumiy hisoblanadi, biroq keyingi bosqichda o'quvchilar turli ta'lim trajektoriyalariga ajratiladi. Bu tizim akademik bilim olishga moyil bolalar va amaliy kasblarga qiziquvchi o'quvchilar ehtiyojini alohida hisobga oladi.

Asosiy maktablar ko'proq amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, real maktablar o'quvchilarni o'rta bo'g'in mutaxassisligiga tayyorlaydi. Gimnaziyalar esa oliy ta'limga yo'naltirilgan akademik bosqich hisoblanadi. Shu tarzda, ta'lim jarayoni mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan.

Bu tizimning kuchli tomoni — har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos muhitda rivojlanadi. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan qaraganda, erta saralash ba'zan bolaning keyingi imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Fransiya modeli: markazlashgan nazorat va yuqori talab

Fransiyada ta'lim sifati davlat nazorati ostida bo'lib, boshqaruv tizimi markazlashgan. Maktabgacha ta'limdan tortib, licey bosqichigacha yagona

standartlar amal qiladi. O'quvchilar avvalo boshlang'ich ta'limni oladi, keyin kollej bosqichiga o'tadi va yakunda liceyda mutaxassislik yo'nalishini tanlaydi.

Fransiya ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga katta mas'uliyat yuklanadi. Ayniqsa boshlang'ich bosqichda pedagog nafaqat dars beruvchi, balki tarbiyachi va jamoat yetakchisi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish maxsus inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bu yondashuv tizimli va barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, markazlashgan boshqaruv ba'zan maktablarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Xalqaro tajriba va milliy taraqqiyot

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi ham xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Jahonda keng qo'llanilayotgan yondashuvlar qatorida:

o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish;

kasbga erta yo'naltirish;

o'qituvchi malakasiga yuqori talab qo'yish;

ta'lim sifatini mustaqil baholash;

xalqaro monitoring dasturlarida ishtirok etish

muqim o'rin tutadi.

Jumladan, Programme for International Student Assessment (PISA) va Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) kabi dasturlar ta'lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali ta'lim tizimi uch asosiy omilga tayangan: aniq strategiya, kuchli pedagog kadrlar va shaffof baholash mexanizmi. Biror davlat tajribasini to'liq ko'chirish emas, balki uni milliy mentalitet va ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda moslashtirish muhimdir.

**II MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA
JARAYONINING MAZMUNI VA MOHIYATI
6-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA
JARAYONINING MAZMUNI VA MOHIYATI.**



Tayanch tushunchalar: Tarbiya, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, komil inson, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, ta'lim, jamiyat, integratsiya, ijtimoiy hayot

**Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.
(Alisher Navoiy)**

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va qonuniyati
2. Tarbiya jarayonining tamoyillari.
3. Tarbiya va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liqligi

6.1. Tarbiya jarayonining mohiyati

Tarbiyaning strategik maqsadi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi, ustuvor taraqqiyot yo'nalishlari hamda mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy aloqada belgilanadi. Bugungi globallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarbiya siyosatining asosiy yo'nalishi jismonan sog'lom, intellektual salohiyati yuksak, mustaqil tafakkurga ega hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Zero, "Kadrlar tayyorlash milliy modeli"da belgilangan ustuvor vazifalar jamiyat ehtiyojlariga mos, zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq mutaxassislarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Bunday kadrlar mamlakatning barqaror rivojlanishini va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarning ro'yobga chiqishida tarbiya jarayoni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaning yakuniy natijasi sifatida barkamol avlodni kamol toptirish e'tirof etiladi. Ushbu jarayon murakkab tizim bo'lib, u bir vaqtning o'zida pedagog tomonidan ilmiy asoslangan boshqaruvni hamda tarbiyalanuvchi shaxsning ichki ehtiyoj va faolligini talab etadi. Tarbiya jarayonida pedagog yetakchi subyekt

sifatida faoliyat yuritib, ijtimoiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini chuqur anglaydi, tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarni tanlab, ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etadi.

Inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishi ko'p qirrali omillar ta'siri ostida kechadi. Ushbu omillar ichki va tashqi, tabiiy va ijtimoiy, shuningdek, ongli ravishda idrok etiladigan hamda ongdan tashqari ta'sir etuvchi omillarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan inson faqat tashqi muhit ta'sirini qabul qiluvchi passiv mavjudot emas, balki o'z shaxsiy rivojlanish jarayonining faol va ongli subyekti hisoblanadi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirishga xizmat qiluvchi, maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchiga izchil, uzluksiz va tizimli ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi. U shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy hamda ma'naviy sifatlarni qaror toptirishga qaratilgan amaliy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayoni insonning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy his-tuyg'ular, xulq me'yorlari va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini o'zida mujassam etadi [6].

Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat taraqqiyoti bilan birga vujudga kelgan bo'lib, shaxsning kamol topishida muhim ma'naviy asos vazifasini bajaradi. U holda na alohida inson, na jamiyatning uzluksiz rivojlanishi mumkin. Tarbiya jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi, avlodlar o'rtasida ma'naviy merosning uzviyligini saqlab qoluvchi muhim qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayoni orqali inson shaxsining ma'naviy olami shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi, e'tiqodi mustahkamlanadi. Ezgulik va adolat, go'zallik va yaxshilik haqidagi tushunchalar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, odat va ko'nikmalar shaxsning ichki sifatlariga aylanishi aynan tarbiyaviy ta'sirlar natijasida yuzaga keladi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik;

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi (G.I. Ilukina);
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish (G.I.Shukina).

6.2. Tarbiya jarayonining tamoyillari.

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyillari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalari hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsni xurmat qilish;
- Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi – o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi hodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib

boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ruyobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi – tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratizatsiya qilish bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchi teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muammo, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho bo'lgan sifatidagi munosabatni shakllantirishdek faoliyat yotadi. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadri, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni

qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik – tarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart. Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini taminlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish – o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish – tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvaffiqdir.

Jamoa orqali tarbiyalash pedagogik jarayonning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning bir butun guruh sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida umumiy manfaat, hamjihatlik va o'zaro yordam tuyg'ularini rivojlantiradi. To'g'ri tashkil etilgan jamoa muhitida har bir a'zoning qobiliyati va iste'dodi namoyon bo'lishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Natijada bola nafaqat individual, balki ijtimoiy jihatdan ham har tomonlama rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

O'quvchilar jipslashgan jamoa sifatida faoliyat olib borganda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ancha samarali kechadi. Chunki jamoa ichidagi o'zaro ta'sir har bir shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, shaxsiy manfaatni jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, hamkorlikda ishlash va bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlar aynan jamoa muhitida shakllanadi. Shu sababli o'qituvchi doimo jamoaga tayangan holda ish olib borishi, o'quvchilarni birgalikdagi faoliyatga jalb etishi hamda ularni jamoada yashash va ishlash ko'nikmalariga o'rgatib borishi zarur. Tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining ijobiy tomonlariga tayangan holda ish yuritish alohida ahamiyat kasb etadi. Tajribali pedagoglar har bir o'quvchining individual xususiyatlarini chuqur o'rganib, uning kuchli jihatlarga suyanadilar.

Aynan shu yondashuv orqali salbiy odat va xulq-atvorlarni bartaraf etish mumkin. Ijobiy fazilatlarini qo'llab-quvvatlash bolani noto'g'ri xatti-harakatlardan qaytarishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan ushbu yondashuvning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liqdir.

Tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda o'qituvchi - tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan metod va usullar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarbiyaviy faoliyatning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va o'ziga xos jihatlari haqidagi nazariy hamda amaliy qarashlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha ifodalash mumkin: tarbiya jarayonining umumiy loyihasi, ijtimoiy ehtiyoj va rag'bat, aniq maqsad, mazmun (shakl, metod, usul va texnik vositalar), tarbiyachi faoliyati, tarbiyalanuvchi faoliyati hamda erishilgan natija. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – bu aniq maqsad va ijtimoiy talablar asosida, tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tizimli va tashkiliy jihatdan samarali yo'lga qo'yish demakdir. Biroq ta'lim jarayonidan farqli ravishda, tarbiya natijalarini qisqa vaqt ichida aniq baholash imkoniyati cheklangan. Shu sababli mazkur jarayonda pedagogdan yuqori darajadagi mas'uliyat, sabr va ijodkorlik talab etiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda rasmiyatchilikka yo'l qo'yilgan. Ya'ni o'qituvchilar ko'pincha tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni shunchaki bajarish, tayyor ssenariy asosida ish olib borish bilan cheklanib qolganlar. Bunday yondashuvda o'quvchilar faol sub'yekt sifatida emas, balki ijrochi sifatida ishtirok etadi. Natijada tarbiyaviy jarayonning haqiqiy samaradorligi pasayadi. Mazkur holat bir qator salbiy oqibatlariga olib keladi.

Birinchidan, o'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan befarqlik yoki salbiy munosabat shakllanadi.

Ikkinchidan, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi.

Uchinchidan, bunday tadbirlar o'quvchilar kamoloti uchun emas, balki tashqi ko'rinishdagi obro'ni ta'minlash vositasi sifatida qabul qilinadi.

Shu bois zamonaviy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ularning fikrini inobatga olish hamda ijodkorligini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina tarbiyaviy faoliyat haqiqiy natija berib, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondashuv ularning mazmuni va tashkil etilishida Yangicha pedagogik qarashlarning qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Bunda eng avvalo tarbiyaviy tadbir mavzusi va g'oyasi o'quvchilarning shaxsiy tashabbuslari, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, tadbir ssenariysini ishlab chiqishda o'quvchilarga mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanadi. Rollarni taqsimlash jarayoni majburiy emas, balki o'quvchilarning qobiliyati, layoqati va individual qiziqishlari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur yondashuvda o'qituvchining roli buyruq beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy tadbir yakunida esa uning natijadorligi o'quvchilarning faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilinadi. Bunda tanqidiy yondashuvdan ko'ra, o'quvchilarning o'zlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda uni puxta loyihalash alohida o'rin tutadi. Tarbiyaviy faoliyatni loyihalash quyidagi izchil bosqichlarda amalga oshiriladi:

- ❖ mavzuga oid materiallarni to'plash;
- ❖ maqsad va vazifalarni aniqlash;
- ❖ mazmuni ishlab chiqish;

- ❖ shakl, metod va vositalarni tanlash;
- ❖ tadbirni o'tkazish muddati va davomiyligini belgilash;
- ❖ senariy yaratish;
- ❖ o'quvchilar faoliyatini kuzatish va norasmiy baholash;
- ❖ loyihani amaliyotga joriy etish;
- ❖ tadbirni bevosita tashkil etish;
- ❖ natijalarni tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Shu bilan birga, texnologik yondashuv o'quvchilarning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillarni ham inobatga olishni talab etadi. Jumladan, o'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning mavjudligi, ularning bunday faoliyatni mustaqil tashkil etish tajribasiga ega bo'lishi hamda tadbir g'oyasining ularning ichki motivlariga mos kelishi muhim omillar sirasiga kiradi.

Amaliyotda mazkur omillarga tayanish tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda ularga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi va ma'naviy-axloqiy sifatlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Tarbiya texnologiyasida maqsadlar tizimi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular turli darajalarda namoyon bo'ladi va o'zaro uzviy bog'langan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Eng yuqori darajadagi maqsadlar jamiyatning inson va fuqaro haqidagi umumiy ijtimoiy tasavvurlarini aks ettiradi hamda davlat siyosati va normativ hujjatlar orqali belgilanadi. Keyingi darajada ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlarida ifodalangan maqsadlar turadi. Eng quyi darajada esa muayyan yosh davridagi shaxsni tarbiyalashga qaratilgan aniq pedagogik maqsadlar shakllanadi.

Shaxsni shakllantirish va uni maqsadli boshqarish tarbiya jarayonining muhim natijalaridan biri bo'lib, u tasodifiy ta'sirlar asosida emas, balki oldindan puxta rejalashtirilgan hamda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifasi — yuksak ma'naviy va

axloqiy fazilatlariga ega, ijtimoiy faol va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlari bilan bir qatorda shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari ham muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonlar orqali tarbiyalanuvchida mustaqil fikrlash, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va o'zini takomillashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu nuqta nazardan, o'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri belgilashi va ularni samarali amalga oshira olishi muhim pedagogik talab hisoblanadi. Tarbiya maqsadlari jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy buyurtma asosida aniqlanadi hamda ularni ro'yobga chiqarish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Mazkur yondashuv tarbiya jarayonining izchilligi, samaradorligi va natijadorligini ta'minlaydi.

Barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar 3 asosiy jihatlarga ahamiyat berishlari lozim: nazariy, ruhiy, amaliy.

Nazariy jihati - bu tarbiyachining pedagogik va psixologik bilimlarini tizimiy ravishda o'z mehnat faoliyatiga moslash;

Psixologik jihati – bu tarbiyalanuvchilar bilan kun davomida o'zaro munosabat o'rnatish, muloqotda bo'lish jarayoni uchun sharoit yaratish.

Amaliy jihati – bu tarbiyalanuvchi bilan o'zaro munosabat o'rnatish davomida bilim va tajribasiga tayanib, barcha malaka va ko'nikmalarni qo'llash.

Bu uchala jihatlarning o'zaro mantiqan bog'liqligi ta'lim jarayonini nazariy bilimlardan foydalangan holda amaliyotda qo'llash uchun zamin yaratadi.

Har bir shaxsni hamkor sifatida qabul qilish va inkor etmaslik, sabrlik bilan dunyoning xilma-xilligini tushuntirib borish, u bilan bo'ladigan munosabatlarning doimiy mexanizm tizimini mazmunli to'zish barcha ta'lim muassasalari mutaxassisining burch va vazifasidir.

Shaxsqa qaratilgan ta'lim modelini amalga oshirishda tarbiyachi doimo ahamiyat berishi lozim bo'lgan faktorlar:

motivasion, ya'ni manfaatdorlik faktori – o'z kasb faoliyatiga mas'uliyatli bo'lish, ijodiy yondoshish, o'z sohasini mukammal bilish;

shaxsiga moslashish faktori – tarbiyachi faolligi, tarbiyalanuvchi va uning otanasi hamda kasbdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda ichki va tashqi kelishmovchiliklarni ko'rsatmaslik;

shaxsiga yo'naltirilganlik – tarbiyachining tarbiyalanuvchiga nisbatan ideal sub'ekt sifatida emas, balki o'z ehtiyoj va imkoniyatlariga ega shaxs sifatida munosabatda bo'lishi;

maxsus mutaxassislik – tarbiyalanuvchining individual ko'rsatkichlarini bilish, o'z bilim va malakasini pedagogik-psixologik jarayonda namoyon etish; texnologik-uslubiy – pedagogik-psixologik jarayonda maqsadni belgilay olish, natijalarni bashorat qila olish, innovasion usullarni qismlarga bo'lib maqsadli qo'llash;

kommunikativlik – ijobiy hissiyotlarga tayangan holda, perseptiv insonni insonga nisbatan ijobiy qabul qilish, barcha bilan chiqishib ketish, muloqot o'rnatishning zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish;

kasbiy mahorat – o'z kasbi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini mahoratlik bilan amaliyotda qo'llash, doimiy izlanish, mustaqil va ijodiy fikrlash, Yangi malaka va ko'nikmalarga tayangan holda shaxsdagi fiziologik o'zgarishni kuzatish va tahlil qila bilish.

Bo'lajak o'qituvchi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday to'zum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy to'zum mohiyati, taraqqiyot

darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. Bo'lajak mutaxassis pedagogik texnologiyaga old bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo'lishi shart: o'qituvchi xatti-harakatlarining algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

7-MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI.

Tayanch tushunchalar: Tarbiya, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, komil inson, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, ta'lim, jamiyat, integratsiya, ijtimoiy hayot

Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.
(Alisher Navoiy)

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va qonuniyati
2. Tarbiya jarayonining tamoyillari.
3. Tarbiya va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liqligi

6.1. Tarbiya jarayonining mohiyati

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli

bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» = yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo Yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoshlash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.
2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.
3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.
4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.
5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.
 7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.
 8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'kituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.
 9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, "kuchli harakatlantiruvchi" metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning "ayaydigan" metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani "kuchli harakatlantiruvchi" va "ayaydigan" metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.
 10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.
3. Tarbiya metodlarining tasnifi
- Zamonaviy pedagogikada ba'zilar amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilar faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishortirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi u o'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishortirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S. Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.
2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ular uchun Yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to'g'ri kirib kelishga, ularni o'qituvchi va

o'quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o'quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab

chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosisiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim. Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir. Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir. Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va

namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi». Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o'zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zlari yolg'on so'zlaydilar?», «Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zlari pora oladilar?». Agar o'qituvchi va boshqa ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat asosidagi tarbiya masalasi insoniyatni qadim zamonlardan beri o'ylantirib kelgan. Bu g'oya ayniqsa Aflotun va Arastu kabi qadimgi Yunon mutafakkirlarining pand-nasihatlarida muhim o'rin egallagan. Sharq an'analarida esa Aflotunning Arastuga, Arastuning esa Iskandar Zulqarnaynga qilgan nasihatlari alohida asar sifatida mashhur bo'lgan.

Arastu ta'kidlaganidek, haqiqiy tarbiyachi avvalo o'zi tarbiya topgan, yuksak insoniy fazilatlarini egallagan bo'lishi lozim. Unga ko'ra, o'zi tarbiyalanmagan inson boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsata olmaydi. Inson avvalo o'z ruhiyatini poklab, nuqsonlardan xoli bo'lishi kerak, shundagina u boshqalarga ibrat bo'la oladi. Zero, ma'naviy kamolga erishmagan shaxs boshqalarga ezgulik va fazilat ulasha olmaydi. Sharq mutafakkirlari ham bu g'oyani davom ettirib, tarbiya va axloq masalalariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratganlar. Jumladan, Qobusnoma, Pandnoma, hamda Sad pand kabi asarlar yosh avlodni ma'naviy barkamollikka chorlovchi muhim manbalar hisoblanadi. Shuningdek, Arastu ta'limotlari keyinchalik Al-Kindiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar tomonidan chuqur o'rganilib, yanada boyitilgan.

Xulosa qilib aytganda, ibrat-namuna asosidagi tarbiya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yoshlarning ma'naviy kamoloti, sog'lom dunyoqarashi va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanishida ibratning o'rni beqiyosdir. Aynan shunday yondashuv orqali ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat bunyodkorlarini tarbiyalash mumkin.

5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning ijobiy xatti-harakatlarini e'tirof etish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchida quvonch, qoniqish va ruhiy ko'tarinkilik yuzaga keladi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi hamda yanada faol bo'lishga intiladi. Rag'batlantirishning asosiy shakllari sifatida ma'qullash, dalda berish, ishonch bildirish, og'zaki yoki yozma tashakkur izhor etish, mukofotlash kabi usullar qo'llaniladi. Bunday metodlarni qo'llashda pedagogik mezonlarga amal qilish muhim: rag'bat o'quvchining haqiqiy yutug'iga mos bo'lishi, uning individual xususiyatlari va jamoadagi o'rni inobatga olinishi lozim. Me'yoridan ortiq maqtov esa aksincha, manmanlik va xudbinlik kabi salbiy sifatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jazo berish metodlari – o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlariga nisbatan beriladigan bahoni anglatadi. Bu metodlar orqali nomaqbul harakatlar muhokama qilinish, ularning oldini olish va tuzatish maqsad qilinadi. Jazo o'quvchida mas'uliyat hissini oshirishi, o'z xatosini anglashga yordam berishi mumkin. Jazo shakllariga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, jamoa oldida muhokama qilish yoki ayrim faoliyatlardan vaqtincha chetlatish kiradi. Biroq jazoni qo'llashda ham ehtiyotkorlik zarur: u adolatli, o'rinli va tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, rag'bat va jazo metodlari tarbiya jarayonining o'zaro bog'liq vositalari bo'lib, ular o'quvchilarning xulq-atvorini boshqarish va barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish

chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u-xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini, ijtimoiy hayotining obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim tizimida Tarbiya fanini o'qitish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim davrida bolaning dunyoqarashi, odob-axloqi, jamiyatga munosabati hamda milliy qadriyatlarga hurmati shakllana boshlaydi. Shu jihatdan Tarbiya fani o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki barkamol inson sifatida kamol topishiga ham xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada boshlang'ich ta'limda Tarbiya fanini tashkil etishning nazariy asoslari, pedagogik tamoyillari, zamonaviy o'qitish metodlari hamda tarbiyaviy faoliyatning samarali shakl va vositalari keng yoritildi. Qo'llanmada o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kitobxonlik madaniyati va sog'lom turmush tarziga oid tushunchalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati ochib berildi. Xususan, suhbat, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, klaster, aqliy hujum, refleksiya va guruhli ishlash metodlari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirish mumkinligi asoslab berildi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish tarbiya fanini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Qo'llanmada tarbiya fanining bugungi kundagi dolzarb jihatlari, jumladan, media madaniyat, internet xavfsizligi, ekologik tarbiya, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat kabi yo'nalishlar ham yoritildi. Bu esa o'quvchilarning zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda shakllanishiga yordam beradi.

Tarbiya fanining samarali tashkil etilishi o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur o'quv qo'llanmada berilgan nazariy ma'lumotlar,

metodik tavsiyalar va amaliy ishlanmalar pedagoglar uchun tarbiya darslarini mazmunli tashkil etishda muhim metodik manba bo'la oladi. Shu bilan birga, ushbu qo'llanma pedagogika yo'nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar hamda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun foydali adabiyot sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda Tarbiya fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sadoqatli hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish esa ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma ana shu maqsadlarni amalga oshirishda amaliy va metodik yordam beruvchi muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

MAVZU: HIS TUYG'ULARIM

Darsning maqsadi. Ta'limiy: His – tuyg'ular va ularni boshqarish haqida tushuncha berish. His – tuyg'ularni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar haqidagi bilimlarni berish.

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon)dan to'g'ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: His – tuyg'ularni boshqara bilish, kattalarga hurmat, kichiklarga rahm – shavqat ruhida tarbiyalash.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish;

Rivojlantiruvchi: O'z – o'zini anglash, hissiyotlarini boshqarish, jamoat joydi o'zini munosib tutish ko'nikmalarini rivojlantirish. Hamdardlik, o'zgarlar dardini his qilish kabi milliy qadriyatlarni shakllantirish.

FK1: His tuyg'ularini boshqara olish, jamoat joyida o'zini munosib tutish.

SEL ko'nikmasi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ma'sulyatli qaror qabul qilish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Aqliy hujum, Blits savollar, Kayfiyatni aniqlash, T sxemasi, Hissiyotlar kemasi.

Dars jihozi: darslik, planshet, turli xil stikerlar, daraxt maketi, elektron doska, axborot texnologiya vositalari.

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	5 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
	Jami	45 daqiqa

I. Tashkiliy qism (3 daqiqa): Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quv qurollari taxtligi aniqlanadi.

- **Diqqatni jamlovchi mashqlar:**
- **“Kayfiyatni aniqlash” mashqi:** O'quvchilardan hozirgi kayfiyatlariga mos smaylikni ko'rsatish so'raladi.
- O'qituvchi: “Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan ichki dunyoyimizga sayohat qilamiz va bizni boshqaradigan his-tuyg'ular haqida gaplashamiz.

II. O'tgan mavzuni takrorlash (10 daqiqa)

- O'tgan darsdagi “Men hayotni sevaman” mavzusi haqida qisqa savol-javob o'tkaziladi.
 1. Hayot deganda ilk bor nima yoki kim ko'z oldingizga keladi?
 2. Barchamiz hayotni sevamiz, keeling aniqlashtirib olamiz, biz hayotning aynan nima uchun sevamiz?
 3. Hayotni bir so'z bilan ifodalash kerak bo'lsa, siz qaysi so'z bilan ifodalard edingiz?

Uyga vazifa “T sxemasi” metodi orqali tekshiriladi

III. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa)

O'qituvchi his-tuyg'ular haqida tushuncha beradi:

His-tuyg'u — bu bizning voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatimiz. His tuyg'ular orqali atrofimizdagi olamga o'z fikrimiz, reaksiyamiz va emotsiyalarimizni ifodalaymiz. His – tuyg'ularimiz turlicha bo'lib, ularning ba'zilari yoqimli, ba'zilari esa yoqimsiz hissiyotlardir. Bunga sabab, hissiyotlarga sabab bo'ladigan vaziyatlar turlicha ekanligidir. Hissiyotlarni boshqarish uchun eng avvalo uning sababini aniqlab olish lozim. Shunda yoqimsiz hissiyotlarni oldini olish osonlashadi.

Asosiy hislar:

- *Shodlik:* Vaxshi xabar eshitganda yoki muvaffaqiyatga erishganda.
- *Xafalik:* Biror narsani yo'qotganda yoki dildan og'ringanda.
- *G'azab:* Adolatsizlikka duch kelganda.
- *Qo'rquv:* Xavf-xatarni sezganda.

Darslikda berilgan quyidagi vaziyatlarni diqqat bilan kuzating.

1. Bu holatlarda inson nimani his qiladi?
2. Bizga nima ijobiy hissiyot beradi?
3. Salbiy hissiyotni yengishda bizga nima yordam beradi?
4. Salbiy hissiyotni yengishi uchun birovga qanday yordam bersa bo'ladi?



Interaktiv o'yin: "Toping-chi, bu nima?" O'qituvchi biror vaziyatni aytadi, o'quvchilar esa bu qanday his ekanini topishlari kerak.

- *Misol:* "Sizga kutilmagan sovg'a berishdi. Nimalarni his qilasziz?" (Javob: Hayrat va shodlik).

IV. Mustahkamlash va amaliy mashg'ulot (10 daqiqa)

1-topshiriq: "Sehrli ko'zgu" mashqi O'quvchilar juftlikka bo'linadi. Birinchi o'quvchi yuz ifodasi bilan biror hisni ko'rsatadi, ikkinchisi esa uni takrorlaydi va nomini topib aytadi.

2-topshiriq: "G'azabni qanday yengish mumkin?" (Muammoli vaziyat)

O'qituvchi savol beradi: "Agar siz juda qattiq g'azablansangiz, nima qilishingiz kerak?"

- *Tavsiyalar:* Chuqur nafas olish, 10 gacha sanash, suv ichish yoki yaxshi narsalar haqida o'ylash.
- *Tavsiya etilmaydi:* Konfliktga brogan inson oldida qolish, muammo haqida tinmasdan o'ylash, keragidan ortiq ko'p ovqat yeyish.

Matematik yondashuv (Hissiyotlar balansi)

O'qituvchi: Keling, baxtli bo'lish formulasini ko'rib chiqamiz. Agar B — baxt, S — shodlik, M — mehribonlik bo'lsa:

$$B=S+MB = S + MB=S+M$$

Ya'ni, shodlikka mehribonlikni qo'shsak, haqiqiy baxt hosil bo'ladi.

V. Yakunlash va baholash (5 daqiqa)

- **"Hissiyotlar daraxti" metodi:** O'quvchilar darsdan olgan taassurotlarini (shodlik, qiziqish, quvonch, baxt) ifodalovchi rangli barglarni plakatga yopishtiradilar.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash (5 daqiqa).

- Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

VI. Uyg'a vazifa (2 daqiqa).

1. Darslikdagi mavzuni o'qish.
2. "Mening quvonchim" mavzusida kichik rasm chizish yoki hikoya yozish.
3. Bir hafta davomida boshdan kechirgan hissiyotlarini jadval tariqasida yozib kelish (bu hissiyotlarni keltirib chiqargan vaziyatlarini izohlash).

O'qituvchi uchun eslatma: 3-sinf o'quvchilari uchun mavzuni juda murakkablashtirmaslik, ko'proq hayotiy misollar va o'yinlar orqali tushuntirish tavsiya etiladi. Ularga har qanday his-tuyg'u (hatto xafalik ham) tabiiy ekanini, lekin ularni boshqara bilish kerakligini o'rgatish muhimdir.

MAVZU: O'ZIMNI BOSHQARAMAN

Darsning maqsadi. Ta'limiy: O'zini anglash va boshqarish haqida bilim berish.

Kun tartibini to'g'ri tashkil qilishni va unga amal qilishni o'rgatish

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon) dan to'g'ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: Vaqtni to'g'ri taqsimlash, uni iqtisod qilish va vaqtni bekorga sarflamaslikka o'rgatish. Sabr-toqat, mas'uliyat, ijobiy xulq-atvorni shakllantirish.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish;

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stirish. O'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

FK1: His tuyg'ularini boshqara olish, jamoat joyida o'zini munosib tutish.

SEL ko'nikmasi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ma'suliyatli qaror qabul qilish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Aqliy hujum, metodi, "Hissiyotlar termometri" o'yini, "To'xta – o'yla – harakat qil" metodi, "Rolli o'yin" "Vaziyatni hal qil" o'yini

Dars jihozi: darslik, tarqatma kartochkalari, turli xil stikerlar, anogramma, elektron doska.

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqqi
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	20 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
	Jami	45 daqiqa

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)

Salomlashish, davomatni aniqlash, darsga ruhiy tayyorgarlik (diqqatni jamlovchi qarsak enerjayerini o'tkazish).

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)

Savol-javob orqali avvalgi mavzu "Aqliy hujum" metodi orqali uyga vazifa tekshirib olinadi.

To'g'ri ovqatlanish haqida "Ha yo'q" o'yinini o'ynash.

Och qoringa gazli ichimliklar ichish –yo'q

Nonushta qilmaslik - yo'q

Nonushtada tuxum istemol qilish – ha

Ko'p shirinlik yeyish - yo'q

Kam suv ichish - yo'q

Meva va sabzavodlarni istemol qilish – ha

Baliq istemol qilish – ha

Tuzni haddan tashqari ko'p istemol qilish - yo'q

Sut ichishdan bosh tortish - yo'q

III. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)

O'qituvchi o'zini boshqarish tushunchasini hayotiy misollar orqali tushuntiradi. Ichki intizom haqida tushuncha beriladi. O'quvchilardan qisqa savol javoblar orqali Yangi mavzu haqida tushunchalari aniqlab olinadi.

- Oxirgi marta qachon istagan narsangizga erishish uchun, istamagan narsangizni qilishga o'zingizni majburladingiz? "
- Kun tartibiga amal qilasizmi?
- Juda zarur bo'lgan vaziyatlarda odatdagidan ertaroq uyg'ona olasizmi?
- Yomon odatlaringizni yo'qotish haqida tez tez o'ylaysizmi?

"Yomon odatlarni ertaga emas, bugun tashlash osonroq bo'ladi".
Konfutsiy

Darslikda berilgan keysni muhokama qilish. Karim bilan Zafar basketbol to'garagiga a'zo bo'ldi. Karim birorta mashg'ulotni qoldirmadi. Zafar esa bir borib, bir bormay yurdi. Bir safar "Shu o'yinni oxirigacha o'ynab olay", dedi, bir safar "Zo'r film ekan, ko'rib olay", dedi, yana bir safar esa dars qilishga ulgurmagani bahona qildi.

Sport ichki intizomni shakllantirish uchun eng yaxshi odatlardan biri ekanligi haqida chenpiyonlarizning hayoti misolida tushunchalar berish.

Darslik bilan ishlash: Quyida berilgan odatlarning qay biri bizning intizomimizni tarbiyalaydi?

Kun tartibiga
rioya qilish

Yarim tungacha
televizor ko'rish,
Internetni titkilash

Maqsadni belgilash,
reja tuzish

Dangasalik



Sport bilan
shug'ullanish

Vaqtни qadrlab, uni
behuda ketkazmaslik

Tartibsizlik

Bahonalar

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash (20 daqiqa)

1-topshiriq. "Hissiyotlar termometri" o'yini – o'quvchilar kayfiyatini aniqlaydi. Har bir o'quvchi kayfiyatini ob-havo ma'lumotlari asosida ifodalaydi.

Masalan: Men bugun quyosh kabi porlayabman. Menda bugun salqin bahor yomg'iri va mayin shabada esib turibdi. Men momaqaldiroqdek gumburlashim butun sinfga aks sado bermoqda.

2-topshiriq. Rolli o'yin – "Ustoz sabog'i" matni rolli o'yin orqali o'rganiladi.

3-topshiriq. "Vaziyatni hal qil" – guruhlar bilan ishlash. Sinf to'rt kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga o'zini o'zi boshqara olmasligi oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyat aytiladi. Guruhlar muammoli vaziyatga yechim topishlari kerak.

4-topshiriq. "To'xta – o'yla – harakat qil" mashqi – to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradigan bu mashq sharti bo'yicha o'quvchilar qog'ozlarga o'zlarida mavjud yomon odatlarni yozib chiqadilar va ularni yo'qotishga oid qarorlar qabul qiladilar. - *Yarim tungacha televizor ko'rish. Yechim: xonani shamollataman asal qo'shilgan iliq sut ichaman vas oat 9:00 dan kech yotmayman.*

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. (3 daqiqa)

Xulosa chiqarish, baholash va rag'batlantirish

VI. Uyg'a vazifa (3 daqiqa)

"Men bu yil nima o'rgandim" mavzusida 5–6 gapdan iborat hikoya yozish.

MAVZU: VOLONTYORLIK – EZGULIK VA MEHR ULASHISH

Darsning maqsadi. Ta'limiy: Volontyorlik tushunchasi haqida bilim berish.

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon) dan to'g'ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish :

Tarbiyaviy: Mehr-shafqat, saxovat va hamjihatlilik ruhida tarbiyalash.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish;

Rivojlantiruvchi: Muloqot va ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Ko'ngillilik va mehribonlik tuyg'ularini rivojlantirish. Milliy qadriyatlarini shakllantirish.

FK1: His tuyg'ularini boshqara olish, jamoat joyida o'zini munosib tutish.

SEL ko'nikmasi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ma'suliyatli qaror qabul qilish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Aqliy hujum metodi, "Sinveyn" metodi, "Ikki qismli kundalik" metodi,

"A4 format" metodi, "Ortiqchasini top" o'yini

Dars jihozi: darslik, tarqatma kartochkalari, turli xil stikerlar, anogramma, elektron doska.

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	20 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	3 daqiqa
6	Uyg'a vazifa	2 daqiqa
	Jami	45 daqiqa

I. Tashkiliy qism (5 daqia)

Salomlashish, davomatni aniqlash, hikmatli soʻzlar bilan ijobiy muhit yaratish.

II. Oʻtgan mavzuni takrorlash (5 daqia)

Bolajonlar oʻtgan darsimizda “Sinfdagi muhit” mavzusi orqali ahillik, birdamlik tushunchalarini oʻrgandik. Ahillik, birdamlik tushunchalari azal-azaldan bizning qon qonimizga singib ketgan milliy qadriyatimiz hisoblanadi. Ota – bobolarimiz oʻzгалar dardini tushunib, ularga yordam qoʻlini joʻzib yashash har bir insonning vazifasi deya qarashgan.

Xoʻsh qani aytinglarchi ahillik oʻzi nima?

Sinfda hamma ahil boʻlishi uchun qanday qoidalarga amal qilishimiz lozim?

Uyda yozib kelgan fikrlaringizni birma - bir oʻqing.

Uyga vazifa tekshirilib, baholab olinadi.

III. Yangi mavzu bayoni (10 daqia)

Siz hayotda kimgadir shunchaki, hech qanday qarshiliklarsiz, evaziga hech nima talab qilmasdan yordam berganmisiz? Bu ishni yakka oʻzingiz qilganmisiz yoki koʻpchilik boʻlib bajaringizmi? Agar siz jamoa boʻlib bajargan boʻlsangiz bu aynan Volontyorlik deyiladi

Volontyorlar odamlarga begʻaraz yaxshilik qilish uchun birlashgan insonlardir. Ularga oylik maosh toʻlanmaydi. Volontyorlik - birovlariga yordam berish, savob uchun xolis xizmat qilish.

Volontyorlik atamasi bizga begona emas, balki bizning milliy qadriyatlarimiz namunasidir. Xalqimizda hashar uyushtirish anʼanasi ham volontyorlikning bir koʻrinishi hisoblanadi. Odamlarga foyda keltiradigan va evaziga faqat duo olinadigan ishlar savobli ishlar deyiladi. Savob uchun ish qilish xalqimizning eng goʻzal fazilatidir. Siz ham odamlarga yordam berish uchun oʻzingizga yoqqan — savobli ishlarni tanlashingiz mumkin. Masalan, daraxtlarni parvarish qilish, togʻdagi va istirohat bogʻlaridagi chiqindilarni yigʻishtirish, hasharlarda qatnashish mumkin.

Yordamga muhtoj, bemor, yolgʻiz yashaydigan keksalarga qarashish, uylarini yigʻishtirish, kerakli narsasini doʻkondan olib kelib berish mumkin. “Mehr va oqibat” jonivorlarni himoya qilish jamiyatiga borib, ularga ham yordam berishingiz mumkin.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash (20 daqia)

Aqliy hujum metodi orqali Yangi mavzu mustahkamlanadi

1. Savob deganda nimani tushunasiz? Eko-volontyorlik nima?
 2. Nima uchun odamlar koʻchatlarning yoniga ustun qoqib chiqishdi?
 3. Bolalar qoʻshni keksa ayolga qanday yordam berishyapti? Nima uchun bu ishni volontyorlik deyish mumkin?
 4. Odamlarga foydali ish qilmoqchi boʻlsangiz, kim bilan maslahat qilish kerak?
- 1-topshiriq. Yangi mavzuni Sinkveyn metodi orqali mustahkamlanadi

Namuna:

1. Volontyor

2. Mehribon, oqkoʻngil

3. Yordam beradi, mehnat qiladi, mehr koʻrsatadi.

4. Volontyorlik – ezigulik maxsuli hisoblanadi.

5. Koʻngilli.

2-topshiriq. “Ikki qismli kundalik” metodi orqali oʻquvchilar volontyorlik, qadriyat, anʼana soʻzlariga taʼrifni va oʻzlarining tushunchalarini yozishadi.

3-topshiriq. “A4 format” metodi orqali volontyorlikka misollar yozishadi. Sinfni uch guruhga boʻlib olamiz. Har bir guruhga bittadan A4 formatdagi oq qogʻoz beriladi. Qator boshidagi oʻquvchilar tezlik bilan volontyorlikka misol boʻla oladigan ish harakat nomlarini yozishadi va orqadagi oʻquvchiga uzatadilar. Qaysi jamoa A4 qogʻozni birinchi boʻlib eng oxirgi oʻquvchiga yetkazsa, shu jamoa gʻolib boʻladi.

4-topshiriq “Ortiqchasini top” oʻyini orqali volontyorlikka misol boʻlmaydigan suratlar aniqlanadi.

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash. (3 daqia)

Bugungi mavzu bo'yicha xulosa qilinadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa (3 daqiqa)

Tanishlaringiz orqali volontyorlik qilayotgan biror inson bilan uchrashib, undan intervyu oling.

Mavzu: O'zbekiston xalqlari madaniyati – do'stlik va bag'rikenglik timsoli
Darsning maqsadi. Ta'limiy: O'zbekiston hududidagi turli millat va elatlarning madaniyati haqida tushuncha berish.

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon)dan to'g'ri foydalana olish

FK1: suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: O'zbekona urf-odat va an'analarning milliy xususiyatlarini farqlash va amalga oshirish usullarini o'rgatish. Millatlararo do'stlik, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash.

TK4: Millatlararo bag'rikenglik, ona Vatanga sadoqat;

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning ijtimoiy tafakkuri, muloqot madaniyati va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish.

FK1: His tuyg'ularini boshqara olish, jamoat joyida o'zini munosib tutish.

SEL ko'nikmasi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ma'suliyatli qaror qabul qilish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Suhbat metodi, "FSMU" metodi, "Klaster" metodi.

Dars jihozi: darslik, milliy kiyimlar rasmlari, xarita, rangli kartochkalar, markerlar, maqollar yozilgan tarqatmalar

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	20 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	3 daqiqa

6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)

Salomlashish. Davomatni aniqlash. Diqqatni jamlash va darsga qiziqtirish daqiqasi o'tkazish: "Biz turli millatimiz, ammo bir Vatanimiz" (xo'r bo'lib aytishadi)

II. O'tgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)

Aqliy hujum: An'ana nima?

Nega an'analarga sodiq qolish kerak?

Sizning oilangizda qanday an'analar mavjud?

Hunarlarni ham an'ana deya olamizmi?

Palov tayyorlashning necha xil usuli borligini bilasizmi?

Javoblar umumiy lashtirilash tirilib xulosa qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)

O'zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Yurtimizdagi barcha millat va elatlar bir oila farzandlaridek tinch-totuv yashaydilar. Mamlakatdagi xalqlar qanchalik ahil, tinch-totuv yashasa, aholining turmushi shunchalik farovon bo'ladi. O'zbekistonda turli millat vakillarining madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu ishga turli millatlarning madaniy markazlari katta hissa qo'shmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 153 millat va elatlarning milliy madaniy markazlari bor.

O'zbekiston Respublikasi aholisining etnik tarkibi

84,4%

O'zbeklar

4,9%

Tojiklar

2,4%

Qozoqlar

2,1%


Ruslar

2,2%

Qoraqalpoqlar

4,1%

Boshqalar



Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek bag'rikeng hamda millatparvar xalq hisoblanadi. Bag'rikenglik, insonparvarlik kabi hislatlar bizning milliy qadriyatlarimiz bo'lib, ularga sodiq qolish har birimizning burchimizdir.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash (20 daqiqa)

Vatan deganda nimani tushunasiz?

-Sizningcha millat nima?

- Vatanimizda nechta millat vakillari yashaydi?

-Nega har bir millat o'zgacha, ularni bir-biridan ajratib turuvchi jihatlari qaysilar?

-Sizning boshqa millat vakili bo'lgan do'stlaringiz bormi, ular bilan o'xshash va farqli jihatlaringizni ayting.

1-topshiriq "FSMU" metodi orqali o'quvchilardagi bag'rikenglik, do'stlik, insonparvarlik kabi milliy qadriyatlarimiz haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

O'zbekiston ko'p millatli davlatdir.

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi

84% o'zbeklar, qolganlari esa turli millat vakillari hisoblanadilar.

Biz insonparvar va bag'rikeng millatimiz.

2-topshiriq. Keys-stadi: Sinfga boshqa millat vakili keldi, ba'zi bolalar gaplashishga tortindi. Buning oqibatida bolaning Yangi muhitga moslashishi qiyin kechdi. Uning bir o'zi zerikayotgani va kim bilandir suhbat qurgisi, o'ynagisi kelayotganini bilish qiyin emas edi. Savol: Bunday vaziyatda siz qanday yo'l

tutgan bo'lar edingiz? U bolaning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring. Do'stlikni qanday mustahkamlash mumkin?

3-topshiriq. Didaktik o'yin "Madaniyatlar mozaikasi": har bir guruhga bir millatga oid rasm beriladi, kiyimi, taomi yoki bayrami haqida ta'rif beradi.

4-topshiriq. Guruhli ish: Klaster metodi bilan "O'zbekiston xalqlari madaniyati" mavzusida fikrlar yozish.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. (3 daqiqa)

Bugungi mavzu bo'yicha xulosa qilinadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Dars yakuni bo'yicha turli xil nominatsiyalar e'lon qilinadi. "Bag'rikeng o'quvchi", Intizomli o'quvchi", "Topqir o'quvchi" yorlig'i topshiriladi.

VI. Uyga vazifa (3 daqiqa)

"Men yashaydigan hudud nimasi bilan mashhur" mavzusida kichik insho yozish.

Mavzu: An'analar – xalq xotirasidir

Darsning maqsadi. Ta'limiy: O'quvchilarga an'analarga oid bilim va tushunchalar berish. An'analar tushunchasi mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo'lish bilimini shakllantirish. **TK2:** axborot manbalari (televizor, telefon)dan to'g'ri foydalana olish. **FK1:** suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish.

Tarbiyaviy: Odob-inson ko'rki va ma'naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma'rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o'g'itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, shakllantirish. **TK4:** Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: O'zbekona urf-odat va an'analarning milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o'rgatish. **FK1:** O'zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma'lumot bera olish.

SEL ko'nikmasi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ma'suliyatli qaror qabul qilish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Suhbat metodi, "FSMU" metodi, "Klaster" metodi.

Dars jihozi: darslik, milliy kiyimlar rasmlari, xarita, rangli kartochkalar, markerlar, maqollar yozilgan tarqatmalar

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	20 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
	Jami	45 daqiqa

I. Tashkiliy qism (5 daqia)

Salomlashish. Davomatni aniqlash. Diqqatni jamlash va darsga qiziqtirish daqiqasi o'tkazish: qarsak orqali yomg'ir tomchilashi ovozini o'xshatish.

II. O'tgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)

O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)

"An'ana" so'zi arab tilida "nasldan naslga o'tadigan qoidalar" degan ma'noni bildiradi. An'ana bir avloddan keyingi avlodga, kattalardan kichiklarga o'tib kelayotgan qadriyatlaridir. An'analarni urf-odatlar, milliy liboslar, taomlar va hunarmandchilikda ko'rish mumkin. Milliy an'analar tufayli o'tmishimiz bugungi kunda yashab, kelajakka qarab qadam bosadi. Katta avlodlarning hikmatlari yosh avlodga o'tishda davom etadi.

O'qituvchi o'quvchilarga bir nechta eksponatlarni ko'rsatadi: Do'ppi, atlas matosi, kichik sopol ko'zachasi.

Savol: "Bolajonlar, bu buyumlar bir-biri bilan qanday bog'langan? Ular bizga xalqimiz haqida nimalarni so'zlaydi?"

Natija: O'quvchilar an'ana va madaniyat tushunchalarini o'z so'zlari bilan bog'lashga harakat qiladilar.

"Virtual sayohat" (Kulolchilik san'ati haqida videorolik)



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash (20 daqiqa)

Sopol idishlar nimadan yasalar ekan?

Loy yumshoq, lekin sopol yoki chinni idishlar nega qattiq bo'ladi?

O'zbek sopol buyumlarining qanday turlarini bilasiz?

Qaysi taomlar laganga suziladi?

Nima uchun chet elliklar o'zbek sopol buyumlarini bunchalik yaxshi ko'rishadi?

Kulolchilik O'zbekistonning qaysi viloyatlari va qaysi shaharlarida rivojlangan?

1-topshiriq: Sinf 3 ta kichik guruhga bo'linadi:

1. "Etnograflar" guruhi: O'zbek milliy an'analari (hashar, mehmondostlik, beshik to'yi).

2. "Sayohatchilar" guruhi: Dunyo xalqlari madaniyati (yaponcha salomlashish, inglizcha tartib-intizom).

3. "Odobshunoslar" guruhi: Jamoat joylaridagi odob axloq qoidalarini yozishlari va ularga ta'rif berishlari kerak.

2-topshiriq: "Sehrli sandiqcha". Sandiqchadan chiqqan maqollarning davomini topish va ulardagi madaniy ma'noni tushuntirish.

Masalan: "Qush uyasida ko'rganini qiladi..." (Ma'nosi: Oila – tarbiya va madaniyat o'chog'i).

3-topshiriq: "Madaniyat daraxti" loyihasi

Doskaga katta daraxt surati chiziladi. O'quvchilar rangli barglarga o'zleri amal qiladigan eng muhim madaniy qoidalarni yozib, daraxtga yopishtiradilar:

• "Men ovqatdan oldin qo'limni yuvaman."

• "Men bobomga har doim birinchi bo'lib salom beraman."

• "Men sinfdoshlarim bilan urishmayman."

4-topshiriq: Muammoli vaziyat (Keys-stadi)

Vaziyat: "Anvar ko'chada ketayotib, bir amaki og'ir sumka ko'tarib kelayotganini ko'rdi, lekin u shoshib turgan edi. Anvar qanday yo'l tutishi kerak?"

Guruhlar muhokamasi orqali yordam berish an'anasi va vaqtni to'g'ri taqsimlash madaniyati o'rtasidagi oltin muvozanat topiladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. (3 daqiqa)

O'quvchilar mashg'ulotdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi. Rag'bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruh o'quvchilari ham umumiy rag'batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa (3 daqiqa)

"Mening turli millatga mansub qarindoshlarim, do'stlarim, tanishlarim" degan mavzuda tadqiqot o'tkazing.

Glossariy

Tarbiya – inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan say – harakatlar tizimidir.	Воспитание – это система действий, направленных на формирование духовного облика личности человека.	Education (Upbringing) is a system of actions aimed at shaping the spiritual character of an individual.
Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va	Задача воспитания – с учётом духовных	The task of education is that, taking into account

hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog'liq.	источников, а также требований и потребностей современности, эффективность воспитания, направленного на достижение конкретной цели во взаимодействии учителя с учеником, зависит от используемых методов воспитания.	spiritual sources as well as modern requirements and needs, the effectiveness of education directed toward a specific goal in teacher-student interaction depends on the methods used.
Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.	Процесс воспитания – его сущность и роль в развитии общества чрезвычайно важны. Необходимо воспитывать человека, побуждать его к получению знаний и труду, постепенно превращая эти действия в устойчивые навыки.	The process of education – its essence and role in the development of society are extremely significant. It is necessary to educate a person, encourage them to acquire knowledge and engage in work, gradually turning these actions into habits.
Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.	Цель воспитания – формирование у студентов и молодежи национальной идеи и национальной идеологии с использованием научно-педагогических методов исследования.	The goal of education is to form national ideas and national ideology among students and youth using scientific pedagogical research methods.
Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy hislatilari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib	Воспитательный процесс – это процесс освоения подрастающим поколением опыта старших, обеспечивающий управление развитием личности и создание необходимых условий	The educational process is the process through which the younger generation acquires the experience of older generations, ensuring the management of personal development and creating necessary conditions for the formation of

beradi.	для формирования её качеств.	individual qualities.
Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalari, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirishni ko'zlashdir.	Воспитательная цель – через усвоение основ наук, под влиянием заложенных в них идей и мировоззрения, направлена на формирование личных качеств, веры и убеждений.	Educational goal – through mastering the fundamentals of sciences and under the influence of the ideas and worldviews embedded in them, it aims at shaping personal qualities, faith, and beliefs.
Tarbiyaviy munosabatlar – insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsining rivojlantirishga, ya'ni, mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'z – o'zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi.	Воспитательные отношения – это устойчивые отношения между людьми, способствующие развитию личности, формированию самостоятельного получения знаний, самообразования и самовоспитания, а также проявляющиеся в различных формах во взаимоотношениях между руководителями и сотрудниками в процессе управления.	Educational relationships are stable interactions between people that contribute to personal development, the formation of independent learning, self-education, and self-upbringing, and are also manifested in various forms in relationships between managers and employees in the management process.
Tarbiyaviy soatlar – bilim yurti sharoitida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Tarbiyaviy ishlar ma'rifiy, yo'naltiruvchi, baholovchi singari uch asosiy qismlarga bo'linadi.	Воспитательные часы – одна из основных форм организации воспитательной работы вне учебных занятий в образовательных учреждениях. Воспитательная работа делится на три основные части: просветительскую, направляющую и оценочную.	Educational hours are one of the main forms of organizing extracurricular educational activities in educational institutions. Educational work is divided into three main parts: informative, guiding, and evaluative.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Shavkat Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib. Yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Shavkat Mirziyoyev Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Shavkat Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017 138- 139-betlar
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // 20.09.2017. //https://president.uz/uz/lists/view/1063

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847- sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil Iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining G.B. SAIDNAZAROVA TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI 225 uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori.

16. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichmabosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston vazirlar mahkamasining 422- son qarori 2020 6-iyul.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.
2. Aliqulov X., Nosirov R., Qodirov M., Omonboyeva R., Ashurov A. Tasavvuf ta'limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. O'quv qo'llanma. Andijon. 2005y.36– b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003.

5. Azimova N.E. Bo'lajak kasb. ta'limi o'qituvchisini ma'naviyaxloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T., 2009.

6. Айдагулова А.Р. Формирование воспитательной медиасреды педагогического вуза: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. – Уфа, 2012

7. Axborot asrida ta'limtarbiya / To'plam. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.H. Jabborov. – T.: Akademnashr, 2012.

8. Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni singdirishning ahamiyati. A.K.Kadrekova, M.A.Akniyazova. Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston.

9. Begmatova N. Zamonaviy texnologiyalar orqali milliy qadriyatlarni singdirish masalalari. — Toshkent: Ta'lim, 2022.

10. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati. – T., 1994–y. 7–b.

11. Kulchayeva D. Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari // Academic research in educational sciences. 2021. №11.

12. Ergashev I. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbeki95-200-betlarston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.- Toshkent: Akademiya,2005.1

13. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: "Ma'naviyat", 2002-240-bet.

14. Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. –Toshkent, 2020 y

15. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

16. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.

17. Kodirov A., Quronov M. va boshq. Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.
18. Komilov N. Komil inson millat kelajagi. Uzbekiston 2001. komponentlari. - T.: "Yangi nashr", 2019. - 27 b.
19. Kuponov M. Milliy Tarbiya ma'naviyat 2007-240 Bet
20. Mollenhauer K., Friesen N. Forgotten connections: On culture and upbringing. - Routledge, 2013.
21. Maxmudov M. Komil inson- ajdodlar orzusi adabiy falsafiy uylar. Risola ma'sul muxarrak R.J. Voxidov yozuvchi 2002- 288 bet
22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2015. - 208 b.
23. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2015. - 208 b.
24. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. "Istiqlol", 2003, 224 b.
25. Олимов Ш. Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари.(Монография) //Т.: "Fan va texnologiya", -2015. - 2015. - Т. 228.
26. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 26 w September 2021 www.oriens.uz O'RTA ASR SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI Oysha Iskandarovna Jabborova Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti
27. Jabbor Omonturdiyev. Ma'rifatnoma. -Toshkent:Mumtoz so'z.2013. B-18.
28. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. «Zebo print», Toshkent – 2022
29. Olimov Sh.Sh. Pedagogik texnologiyalar. - T.: "Universitet", 2020. - 172-177 b.

30. Safiyeva Sh. Ta'lim jarayonida tarbiyaviy yondashuvlar. — Toshkent: Fan, 2020.
31. Qurbonov M. Milliy Tarbiya Respublika ma'naviyati va ma'rifat kengashi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy amaliy maruza. " Ma'naviyat" 2007-240 b
32. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: Ma'naviyat, 2007-240-bet.
33. Quronov M., Turaev Sh. va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y.
34. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. — Moskva: Pedagogika, 1984
35. YUSUF XOS XOJIBNING TA'LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARINING JADID MA'RIFATPARVARLARI G'OYALARIDA NAMOYON BO'LISHI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15674023> Daniyarov Shavkat Ergashevich
36. Topildiev V. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: "Universitet", 2015. - 245b.
37. Ziyomuhamedov B. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma - T.: "Turon-Iqbol", 2006-112 bet.
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI	5
1.1-§. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida	5
1.2-§. Milliy tarbiya konsepsiyasi.....	24
1.3-§. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi.....	39
1.4-§. Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi	68
1.5-§. Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar.....	76
II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINING MAZMUNI VA MOHIYATI.....	81
2.1-§. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati.....	81
2.2-§. Tarbiyaning umumiy metodlari, shakllari va vositalari.....	94
XULOSA.....	106
DARS ISHLANMALAR.....	107
GLOSSARIY.....	124
ADABIYOTLAR.....	126

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

NORMUROTOVA AZIZA KARIM QIZI
ESHBOYEVA SURAYYO QAXRAMON QIZI
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANI

O'quv qo'llanma
60110400-Boshlang'ich ta'lim

8814



“Innovative Publication” nashriyoti

Mas'ul muharrir: Hojiyeva Sayyora
Muharrir: Karimov Jasurbek

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026 Qog'oz
bichimi 60x84 1/16. “Times” garniturasi.
Raqamli bosma. Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 57
Andijon shahri, Samo ko'chasi 32-uy
innovativepublication01@gmail.com



ISBN 978-9910-5266-02-2



9 789910 526602